

JIZZAXNING SALOHİYATI, IMKONIYATI KARRASIGA OSHDI, ODAMLARNING HAYOTGA, ISHGA MUNOSABATI TUBDAN O‘ZGARDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 2-dekabr kuni ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar jarayonlari bilan tanishish hamda kelgusidagi vazifalarni faollar ishtirokida belgilab olish uchun Jizzax viloyatiga tashrif buyurdi.



Davlatimiz rahbari dastlab zamonaviy va qulay yo‘l infratuzilmasini barpo etish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishdi.

Viloyat markazini M-39 xalqaro avtomobil yo‘liga bog‘lash maqsadida qariyb 290 milliard so‘m hisobidan 700 metrlik yo‘l o‘tkazgich va 4 kilometrlik yangi avtomobil yo‘li qurildi.

Mazkur yo‘l har kuni 14 mingdan ortiq transport vositasini o‘tkazish imkoniyatiga ega.

Shu paytgacha ushbu yo‘nalishdan aholi shaharga kirish-chiqish uchun 25 kilometrlik aylanma yo‘ldan foydalanishga majbur edi. Yangi inshoot tufayli bu masofa 4 kilometrgacha qisqardi, eski yo‘ldagi tirbandliklar bartaraf etildi. Bu nafaqat haydovchilar, balki tadbirkorlar, logistika va xizmat ko‘rsatish sohasi uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Metall konstruksiyalardan zamonaviy texnologiya asosida barpo etilgan o‘tkazgichning xizmat muddati 100 yil deb baholanmoqda. An‘anaviy temir-beton o‘tkazgichlar odatda 50 yil xizmat qiladi. Demak, xizmat muddati ikki barobarga uzaydi.

Loyihaning yana bir muhim jihati — ilgari yo‘lovchi va yuk poyezdlar o‘tgan paytda avtomobillar temir yo‘l kesishmasida to‘xtab qolishga majbur edi, endilikda esa yo‘l o‘tkazgich qurilgani tufayli tez tibbiy yordam, o‘t o‘chirish va boshqa maxsus xizmatlarning harakati ancha yengillashadi.

Shu yerning o‘zida davlatimiz rahbariga atom energetikasi loyihalarining borishi to‘g‘risida axborot berildi.

Ayni paytda Jizzax viloyatida integratsiyalashgan ikkita kam quvvatli reaktor

va ikkita katta reaktordan iborat atom elektr stansiyasini barpo etish boshlangan.

Hozirgi bosqichda reaktor binosi uchun kotlovan qazish ishlari faol pallaga kirgan. Qurilish-montaj bazasi uchun yer tekislash, betonlash, armatura o‘rnatish ishlari bajarilmoqda. Quruvchilar yashashi uchun vaqtinchalik turar joy majmuasi barpo etilgan.

Atom elektr stansiyasi uchun zarur qurilish materiallarini mahalliyashtirish, oliygohlarda soha uchun kadrlar tayyorlashni kengaytirish rejalari taqdimot qilindi.

Bo‘ljak elektr stansiyada mehnat qiladigan mutaxassislar va ularning oilalari uchun monoshaharcha qurish loyihasi haqida ma‘lumot berildi. Shaharcha AESdan 16 kilometr uzoqlikda joylashgan, 10 ming kishiga mo‘ljallangan bo‘ladi, unda barcha zarur infratuzilma, ijtimoiy va xizmat ko‘rsatish obyektlari ko‘zda tutiladi.

Prezidentimiz Jizzax shahriga kirish qismini zamonaviy qiyofaga keltirish bo‘yicha master-reja va renovatsiya loyihalari taqdimoti bilan ham tanishdi.

Renovatsiya dasturi asosida Jizzaxda eski uy-joylar o‘rnida zamonaviy, qulay va xavfsiz turar joylar barpo etilishi rejalashtirilgan. Shuningdek, IT-markaz binosini barpo etish, hunarmandchilik markazini tashkil etish, ayrim mavjud majmualarni rekonstruksiya qilish hamda gavjum ko‘chalarni tartibga keltirish kabi loyihalar bilan tanishildi.

Bugungi Jizzax — kechagi Jizzax emas. Viloyatni salohiyati, imkoniyati karrasiga oshdi, odamlarning hayotga, ishga munosabati tubdan o‘zgardi. Shu imkoniyatlarni aholi farovonligini

oshirishga xizmat qiladigan aniq loyihalarga aylantirishimiz kerak, — dedi Prezident.

Taqdimotlar davomida muhokama qilingan masalalar yuzasidan mutasaddilarga aniq topshiriqlar berildi.

Davlatimiz rahbari Jizzax politexnika instituti qoshida tashkil etilgan Avtomobilsozlik muhandislik maktabi faoliyati bilan tanishdi.

Bu yerda “BYD Uzbekistan Factory” va “ADM Jizzakh” korxonalari bilan malakali mutaxassislar tayyorlash va ularni ishga joylashtirish bo‘yicha hamkorlik o‘rnatilgan.

Muhandislik maktabida transport sohasiga ixtisoslashgan to‘rt ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha o‘quv dasturlari yangicha yondashuv asosida tashkil etilgan. Xususan, ikkinchi kursni yuqori ko‘rsatkichlar bilan tamomlagan talabalar BYD zavodi talabarlari asosida ishlab chiqilgan zamonaviy o‘quv platformalarida ikki yillik dual ta‘lim oladi. Talabalar zavod bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri hamkorlikda amaliy mashg‘ulotlarni ham o‘tab boradi, bu esa ularga maxsus ishga yo‘llanma sertifikatiga ega bo‘lish imkonini beradi.

Qisqa muddatli tayyorlov kurslarida avtomobil zavodiga ishga kiruvchi nomzodlar, zavod ishchilari va ishsiz yoshlarga o‘zlari qiziqqan kasblar o‘rgatiladi. Bu yerda BYD avtomobil ishlab chiqarish mini konveyeri ham tashkil etilgan. Ishlab chiqarish sexida payvandlash, bo‘yash, yig‘uv va sifat nazorati bo‘limlari mavjud.

Elektromobil va zaryadlash stansiyasining tuzilishi, elektromobillarga xizmat ko‘rsatish,

sanoat va dasturlash muhandisligi, tanarx va revers muhandisligi yo‘nalishlariga ixtisoslashgan maxsus xonalar tashkil qilingan.

Dunyo avtomobil sanoatida bitta qoida mavjud: raqibni tahlil qilmagan kompaniya rivojlana olmaydi.

Jizzaxdagi ushbu muhandislik maktabida birinchi marta mahsulotni texnik-analitik solishtirish, xarajatlarni modellashtirish (cost modeling), ishlab chiqarishni optimallashtirish, jarayonlarni global standartlar bilan taqqoslash kabi ko‘nikmalar ham o‘rgatilmog‘da.

Muhandislik maktabi faqat talabalar uchun emas, balki sohada faoliyat yuritish istagidagi yoshlar va mutaxassislar uchun ham ochiq. Bu yerda malaka oshirish dasturlari, boshlang‘ich kasbiy tayyorgarlik kurslari va tadbirkorlar uchun amaliy o‘quv modullari tashkil etilgan. Ularda ilg‘or mutaxassislar va ishlab chiqarish korxonalarining tajribali muhandislari faol ishtirok etadi.

Maktabning asosiy maqsadi — talabani tayyor kadr sifatida ish joyiga borishdan oldin amaliyot muhitiga olib kirishdan iborat. Natijada bitiruvchilar bozor talablariga to‘liq javob beradigan, yetuk va raqobatbardosh mutaxassisga aylanadi.

Davlatimiz rahbari maktabdagi mashg‘ulotlar jarayonini kuzadi, mini konveyerda ishlayotgan talabalar bilan suhbatlashdi.

Prezidentimiz shu yerda respublika va viloyat faollari bilan ham muloqot qildi.

Keyingi yillarda Jizzaxda sanoat, qishloq xo‘jaligi va boshqa ko‘plab sohalarda yaxshi natijalarga erishilayotgani qayd etildi. Lekin

ishga solinmagan imkoniyatlar hali ko‘pligi aytiladi.

— Jizzaxga kelib, yangi o‘shish nuqtalarini belgilab olishni maqsad qilganmiz. Asosiysi, aholi, xususan, yoshlarga munosib sharoit yaratish, yuqori daromadli ish bilan ta‘minlash, — dedi davlatimiz rahbari.

Prezident Shavkat Mirziyoyev yangidan barpo etilgan Jizzax viloyati ko‘p tarmoqli tibbiyot markaziga tashrif buyurdi.

Ushbu majmua aholiga barcha zarur tibbiy xizmatlarni bir joyning o‘zida ko‘rsatish imkonini yaratishi bilan katta ahamiyatga ega. Loyiha viloyatda tashkil etilayotgan tibbiyot klasterining dastlabki bosqichi hisoblanadi.

Zamonaviy tibbiyotda bunday klasterli yondashuv tezkor diagnostika, yuqori texnologiyali davolash va shifo istaganlar uchun byurokratik jarayonlarni kamaytirishning eng samarali modeli sifatida tan olingan.

Davlatimiz rahbariga muassasa imkoniyatlari haqida ma‘lumot berildi. Prezident bemorlarni davolash, shifokorlarning samarali ishlashi uchun yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi.

Markaz zamonaviy yetti qavatli binoda joylashgan bo‘lib, kuniga 400 nafargacha bemorni qabul qilish quvvatiga ega. Statsionar o‘rinlari 344 ta bo‘lgan markazga umumiy qiymati 100 milliard so‘mdan ortiq zamonaviy jihozlar — MRT, MSKT, laboratoriya komplekslari hamda yuqori texnologiyali jarrohlik uskunalari o‘rnatilgan.

Poliklinika, radiologiya, kardioxirurgiya, neyroxirurgiya, oftalmologiya va urologiya kabi bo‘limlarning bir majmuada joylashgani tibbiy

xizmat ko‘rsatishni tezlashtiradi, shifokorlar o‘rtasidagi hamkorlik va bemorlar harakatini yengillashtiradi. Ayniqsa, yangi imkoniyatlar tufayli yuqori texnologiyali operatsiyalar uchun navbatlarning qisqarishi loyiha uchun katta ijtimoiy samarasidir.

Markaz ishga tushishi natijasida Jizzax aholisining respublika shifoxonalarini yoki qo‘shni viloyatlarga qatnashi 75-80 foizga kamayadi.

Tibbiyot klasterida Qozon federal universiteti bilan mahalliy mutaxassislar uchun malaka oshirish, ilg‘or diagnostika va davolash usullarini joriy etish, zamonaviy tibbiy standartlarni o‘zlashtirish imkoniyatini beruvchi uzoq muddatli hamkorlik o‘rnatiladi.

Prezidentimiz sog‘liqni saqlash mas‘ullari va xodimlari bilan muloqot qildi.

Davlatimiz rahbari tibbiyot klasterlari va ko‘p tarmoqli klinikalar boshqaruvida eskicha yondashuvlardan chekinib, yangi mexanizmlarni joriy qilish, jumladan, tibbiyotning har bir yo‘nalishi bo‘yicha xorijdan xalqaro ekspertlar va yetakchi menejerlarni jalb qilib, mahalliy mutaxassislarni o‘zimizda, bevosita muassasalarda o‘qitish, malakasini oshirish, raqamlashtirish hamda sun‘iy intellektidan foydalanishni kengaytirish zarurligini ta‘kidladi. Bu Jizzax tajribasi bo‘lishi kerakligi qayd etildi.

Prezidentimiz aholining tibbiy xizmatlardan roziligi masalasiga alohida to‘xtaldi. Sohada amalga oshirilayotgan har qanday o‘zgarishda, eng avvalo, inson qadri ustuvor bo‘lishi zarurligi ko‘rsatib o‘tildi.

Davomi 2-betda

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining F A R M O N I U.M. MUSTAFOYEVNI JIZZAX VILOYATI HOKIMI LAVOZIMIGA TAYINLASH TO‘G‘RISIDA

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasi 15-bandi va 124-moddasiga asosan hamda xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashining qaroriga muvofiq **Ulug‘bek Mavlonovich Mustafoyev** Jizzax viloyati hokimi lavozimiga tayinlansin.

O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti **SH. MIRZIYOYEV**

Toshkent shahri,
2025-yil 2-dekabr

Konstitutsiya – inson qadri, erkinlik, tenglik va adolat garovi!

KONSTITUTSIYAVIY ODIL SUDLOV

YOXUD HUQUQIY-DEMOKRATIK DAVLAT, ADOLATPARVAR JAMIYAT BARPO ETISH YO‘LIDA

Shu kunlarda xalqimiz muhim tarixiy sana – O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining o‘ttiz uch yilligini “Konstitutsiya – inson qadri, erkinlik, tenglik va adolat garovi!” degan hayotiy shior ostida keng nishonlamoqda.

Mamlakatimizda 2023-yil 30-aprel kuni bo‘lib o‘tgan referendumda xalqimiz yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini qabul qildi. Umumxalq referendumi ko‘p millatli buyuk xalqimizning birdamligi va hamjihatligi, suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat barpo etishga qat‘iy qarorining dadil ifodasi bo‘ldi.

Shubha yo‘qki, mohiyat-mazmuniga ko‘ra har tomonlama pishiq-puxta o‘yangan va umume‘tirof etilgan, xalqaro demokratik standartlar talablariga mos Bosh qonunimizning yangilanishi nafaqat jamiyatimiz hayotidagi noyob siyosiy hujjat, ijtimoiy-huquqiy voqea, balki ulkan olamshumul hodisa bo‘ldi.

Davomi 3-betda

JIZZAXNING SALOHİYATI, IMKONIYATI KARRASIGA OSHDI, ODAMLARNING HAYOTGA, ISHGA MUNOSABATI TUBDAN O‘ZGARDI

Boshlanishi 1-betda

— Odamlarimizni ko‘proq bino, undagi sharoit emas, xizmatning sifati, shifokorning bilimi, malakasi, halolligi o‘ylantiradi. Shifoxonaga kelgan odam, avvalo, e‘tibor va to‘g‘ri tashxis, tez va sifatlí davolanishni istaydi. Shuning uchun eng katta vazifa — aholiga chin dildan xizmat qiladigan, yuksak malaka va kompetensiyaga ega bo‘lgan tibbiyot tizimini yaratishdir, — dedi davlatimiz rahbari.

Shu yerning o‘zida Qozon tibbiyot universitetining Jizzax filiali o‘qituvchilari va talabalari bilan suhbat bo‘lib o‘tdi. O‘quv jarayonida amaliy darslarni ko‘paytirish, talabalarni jahon tibbiyotining yutuqlari va ilg‘or tajribasi bilan doimiy tanishtirib borish muhim ekaní ta‘kidlandi.

Prezidentimiz Jizzax viloyatiga tashrifi doirasida Sharof Rashidov tumanidagi “Agromarkaz” qishloq xo‘jaligi korxonalari majmuasida ham bo‘ldi.

Yurtimizda qishloq xo‘jaligini rivojlantirishga qaratilayotgan e‘tibor tufayli sohada imkoniyatlar kengayib, hosildorlikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Joylarda agromarkazlar tashkil qilinib, fermer va dehqonlarga kompleks xizmat ko‘rsatish yo‘lga qo‘yilmoqda.

Jizzax viloyatining Sharof Rashidov tumanida ham ana shunday markaz faoliyat boshladi.

Markazda o‘simliklarni himoya qilish laboratoriyasi, veterinariya dorixonasi, agronom maslahati, urug‘ va ko‘chatlar yetkazib berish, aholi xonadonlariga issiqxonalar qurish, agromarket do‘koni, mini-texnikalar sotish va ularga xizmat ko‘rsatish kabi yo‘nalishlar mavjud.

Bu yerda qishloq xo‘jaligi bo‘yicha barcha xizmatlar “yagona darcha” tamoyili asosida yo‘lga qo‘yilgan. Bir gektar joyni qamragan markazning birinchi qavatida o‘simliklar himoya vositalari do‘koni, veterinariya dorixonasi, urug‘ do‘koni, agromarket, mobil brigada xonalari va 8 ta boshqa xizmat xonasi joylashgan.

Ikkinchi qavatda o‘simliklarni himoya qilish laboratoriyasi mavjud. Shuningdek, tuproq va suv tahlili xonasi, entomologiya hamda fitopatologiya xonalari tashkil etilgan.

Markaz hududida viloyat qishloq xo‘jaligi boshqarmasi, Agrosanoatni rivojlantirish

agentligi bo‘limi, agroinspeksiya, urug‘chilik markazi, qorako‘lchilik uyushmasi hamda qishloq xo‘jaligiga xizmat ko‘rsatuvchi boshqa tashkilotlar joylashgan.

Davlatimiz rahbari agromarkaz faoliyatini bilan tanishdi, markaz faoliyatini yanada kengaytirish, mijozlar uchun xizmatlarni ko‘paytirish va qishloq xo‘jaligida qo‘shilgan qiymat yaratish bo‘yicha tavsiyalarini berdi.

Shundan so‘ng Xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashining navbatdan tashqari sessiyasi bo‘lib o‘tdi. Unda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ishtirok etdi.

— Viloyatni qanday og‘ir sharoitlardan olib chiqqanimizni, Jizzaxning har bir tumanida bo‘layotgan katta-katta o‘zgarishlarni, odamlarning xursandchiligini ko‘rib, juda quvonaman va faxrlanaman, — dedi davlatimiz rahbari so‘zining avvalida.

O‘tgan davrda Jizzax viloyati respublikadagi sanoatni eng tez o‘sayotgan hududga aylandi. Sakkiz yilda 6,5 milliard dollarlik investitsiya loyihalari ishga tushgan bo‘lsa, shuning 45 foizi sanoat hissasiga to‘g‘ri keladi. Jizzaxda yiliga 175 ming avtomobil ishlab chiqarish quvvatlari yaratildi.

Qisqa fursatda Zomin, Forish, Amasoy tumanlari va Jizzax shahrida 2 milliard dollarlik 500 dan ziyod turizm hamda servis obyektlari ish boshladi. Amasoy va Zominda 300 million dollar hisobiga 12 oy davomida to‘liq ishlaydigan kurort zonolari ishga tushgani, ularda aeroportlar barpo etilgani natijasida Jizzax eng jozibador turistik marshrutlardan biriga aylandi.

Sakkiz yil oldin Jizzaxdagi ish o‘rinlarining 42 foizi qishloq xo‘jaligiga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, bugun 310 mingga yaqin viloyat aholisi sanoat va servis sohalaridagi yuqori daromadli ishlar bilan band.

Paxtachilikka moslashgan viloyatning qishloq xo‘jaligi ham tubdan diversifikatsiya qilindi. Baxmal, G‘allaorol, Zomin, Yangiobod, Forish tumanlari bog‘dorchilikka ixtisoslashib, 28 ming gektar yangi bog‘ va tozkorlar barpo etildi. Mirzacho‘l, Do‘stlik, Zafarobod, Zarbdor, Paxtakor, Amasoyning cho‘l hududlarida 12 ming gektar yerlarda ham bog‘ va sabzavot plantatsiyalari tashkil etildi.

Umuman, so‘nggi sakkiz yilda Jizzaxda sanoat 2,5 trilliondan 25 trillion so‘mga, xizmatlar 2,5 trilliondan 20 trillionga, qishloq

xo‘jaligi 9 trilliondan 30 trillion so‘mga oshgani ta‘kidlandi.

— Albatta, bu — katta islohotlarimizning boshlanishi. Jizzax viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti yo‘lida hali ko‘p ishlarni qilishimiz zarur, — dedi Prezidentimiz.

Sessiyada tashkiliy masala ko‘rib chiqildi. Prezidentimiz Jizzax viloyati hokimi lavozimiga hokim vazifasini bajarib kelayotgan Ulug‘bek Mustafoyev nomzodini ilgari surdi. Ovoz berish natijalariga ko‘ra, Ulug‘bek Mustafoyev Jizzax viloyati hokimi etib tasdiqlandi.

Davlatimiz rahbari sanoat, investitsiya, turizm, qishloq xo‘jaligi, qurilish va infratuzilma sohalarini rivojlantirish bo‘yicha yangi tashabbuslarni ilgari surdi.

Jizzaxning respublika avtomobilsozlik sanoatidagi ulushi 25 foizga yetgan. Navbatdagi vazifa zavodlar atrofida yondosh tarmoqlarni rivojlantirib, mahalliyashtirish darajasini oshirish va tannarxni kamaytirishdan iborat ekaní qayd etildi.

Tadbirkorlarga qulay shartlarda tayyor binolarni taklif etish, butlovchi qismlarni validatsiya qilish xarajatlarining 50 foizini qoplab berish vazifalari belgilab olindi.

Viloyatda yiliga 1 ming tonna volfram qazib olish loyihasi amalga oshirilmoqda. G‘allaorol va Nuroboddagi loyihalar ishga tushsa, O‘zbekiston volfram ishlab chiqarish bo‘yicha yetakchi davlatlardan biriga aylanishi ta‘kidlandi.

Mutasaddilarga G‘allaoroldagi oltin resursiga ega istiqbolli maydonga investor jalb qilish, Forishdagi qo‘rg‘oshin-rux konida geologiya-qidiruv ishlarini oxiriga yetkazib, Amasoydagi uran zaxirasi aniqlangan konning texnik-iqtisodiy asosini yakunlash topshirildi.

“Jizzax” erkin iqtisodiy zonasidagi 510 million dollarlik 30 ta loyiha hisobiga 10 mingga yaqin odamning bandligi ta‘minlandi. Bu yerda yana 540 million dollarlik loyihalar jadal kетmoqda.

Tadbirkorlar yangi loyihalar uchun sanoat zonasini yetarli quvvatda elektr bilan ta‘minlash va suv tozalash inshootini qurib berishni so‘ramoqda.

Energetika vazirligiga bu yerda 40 kilometr yuqori kuchlanishli tarmoq tortib kelib, 40 megavattli podstantsiya qurish topshirildi. 2026-yil sanoat zonalarí infratuzilmasini rivojlantirish dasturida “Jizzax” erkin iqtisodiy zonasida suv

tozalash inshooti qurish uchun 100 milliard so‘m nazarda tutuladi.

Sanoatning energiya bilan ta‘minlanganlik darajasini oshirish uchun joriy yil 200 megavatt, keyingi yil 300 megavattli quvvatlar yaratiladi. Bunga qo‘shimcha 30 megavattli 150 ta kichik va mini GESlar ishga tushiriladi.

Viloyatda infratuzilmani yaxshilash va tadbirkorlikni rivojlantirish uchun kelasi yil qariyb 10 trillion so‘m resurs berilishi e‘lon qilindi.

Baxmal va Zomin tumanlaridagi tog‘li hududlarni yagona turizm halqasiga birlashtirish orqali yuzlab servis obyektlarini ishga tushirish, minglab odamlarni ishli qilish, turizm eksportini karrasiga oshirish mumkinligi ta‘kidlandi.

Mutasaddilarga kelgusi yilda “Zomin — Baxmal — G‘allaorol” yo‘lining 158 kilometr qismini ta‘mirlashni boshlash topshirildi. Baxmal tumanida 39 gektar maydonda 40 million dollar investitsiya hisobiga turizm klasterini tashkil qilish tashabbusi ma‘qullandi. Baxmalga ham “turizm tumani” maqomi berilishi belgilandi.

Amasoy aeroportida katta samolyotlarni ham qabul qilish imkonini yaratish zarurligi qayd etildi. Bundan tashqari, Aydar-Amasoy ko‘ligacha temir yo‘l ham olib kelinadi.

Prezidentimiz qishloq xo‘jaligiga alohida e‘tibor qaratdi.

Viloyatdagi jami 900 ming gektar lalmi va yaylov yerlarining 110 ming gektari zaxirada turgani, ularda ozuqa, moyli ekinlar ekish va sanoat bog‘larini yaratish orqali kamida 20 ming odamni ishli qilish mumkinligi ta‘kidlandi.

Shuningdek, viloyatdagi ko‘plab chorvador va fermerlar ozuqa hamda meva-sabzavot yetishtirishda suv nasosiga sarflangan elektr uchun subsidiyani har oyning boshida to‘lab berishni so‘ragan. Mutasaddilarga butun respublikada ushbu subsidiyalarni oy boshida beradigan tizim qilish muhim ekaní ko‘rsatib o‘tildi.

Kartoshkachilikni rivojlantirish borasida Jizzax viloyati namuna bo‘lishi kerakligi ta‘kidlandi. 2026-yildan boshlab kartoshka yetishtiruvchilarni qo‘llab-quvvatlashning yangi mexanizmlari joriy etilishi belgilandi.

Bunda mineral o‘g‘it, texnika, yoqilg‘i va boshqa xarajat uchun 6 oylik imtiyozli davr bilan bir yil muddatda 12 foizli kredit ajratiladi. Kreditlarning 50 foizgacha qismiga kafillik

taqdim etiladi, sug‘orish nasoslariga quyosh paneli o‘rnatish xarajatining yarmi qoplab beriladi.

Kelgusi yildan sug‘orish nasoslarining elektr xarajatini 50 foizi qoplab beriladi, chetdan olib kelingan kartoshka ekish va yig‘ib olish texnikalari bojxona bojlaridan ozod qilinadi.

Shu bilan birga, superelita va elita urug‘larini fermerlarga yetkazib berishgacha bo‘lgan davrda muzlatkichli omborxonalarda saqlash xarajatining 50 foizini qoplab berish mexanizmi joriy qilinadi.

Bundan tashqari, Baxmaldagi bog‘dorchilik xo‘jaliklari uchun bir qator yangiliklar e‘lon qilindi. Xususan, intensiv bog‘ tashkil qilishda 7 yil muddatga 3 yil imtiyozli davr bilan 14 foizdan kredit beriladi. Mevaning turiga qarab, shpalerlar uchun 20 ming so‘mdan 70 ming so‘mgacha subsidiya ajratiladi.

Shuningdek, muzlatkichli omborlar uchun kredit foizini asosiy stavkadan oshgan 8 foizgacha qismi qoplab beriladi. Meva-sabzavot eksportchilari va bog‘bonlarga ham qadoqlash xarajatlarining 50 foizini qoplash uchun subsidiya to‘lanadi.

Umuman, kelasi yili bog‘dorchilik bo‘yicha Baxmalda tajriba maktabi yaratilib, ushbu imtiyozlar butun respublikada joriy qilinadi.

AQSHlik hamkorlar bilan Zominda parrandachilik bo‘yicha yirik naslchilik korxonasi tashkil qilinmoqda. Ushbu klasterda 100 ming bosh quvvatdagi birinchi nasli ona tovuq va 9 million dona inkubatsion tuxum ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yiladi. Bu unikal loyiha respublikada parrandachilikni yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

Qurilish va infratuzilma masalalari muhokama qilinlar ekan, ijtimoiy xizmatlar, mehnat bozori va infratuzilmani markazdan uzoq mahallalar aholisiga yaqinlashtirish zarurligi qayd etildi.

Urbanizatsiya milliy qo‘mitasi va viloyat hokimligiga Yevropadan mutaxassislarni jalb qilib, Jizzax shahri va Sharof Rashidov tumanini yagona aglomeratsiya asosida rivojlantirish bo‘yicha master-reja ishlab chiqish topshirildi.

Viloyat aholisining talab va istaklarini inobatga olib, Jizzax shahridagi tirbandlikni bartaraf etish uchun 10 kilometrli aylanma yo‘l quriladi. Shuningdek, Dashtobod shaharchasi va Xovos tumani o‘rtasidagi temir yo‘li ustidan ham yangi ko‘priq qurilishi boshlandi.

— Bugun sizlar bilan viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha oldimizda turgan yangi vazifalarni belgilab, asosiy masalalarni muhokama qilib oldik. Bu sa‘y-harakatlar va qabul qilayotgan qarorlarimizdan maqsad bitta — shu yerda yashab, mehnat qilayotgan odamlarni rozi qilish, viloyatni har tomonlamma rivojlangan hududga aylantirish, — dedi davlatimiz rahbari yig‘ilish yakunida.

Sessiya davomida viloyat va tuman hokimlarining hisobotlari, faollarning fikrlari tinglandi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Jizzax shahrida joylashgan “Ko‘k saroy” savdo va xizmat ko‘rsatish majmuasi faoliyatini bilan ham tanishdi.

Mamlakatimizda savdo sohasida zamonaviy xizmatlar ko‘rsatish, kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini qulay sharoit yaratish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Jizzax shahridagi 3,5 gektar maydonda faoliyat yuritayotgan “Ko‘k saroy” majmuasi savdo va maishiy xizmat sohasida viloyatdagi eng yirik obyektlardan biridir.

Bu yerda 300 dan ortiq yangi tadbirkorlik subyektlari ish boshlagan. Natijada 800 dan ziyod ish o‘rni yaratildi, jumladan, ehtiyojmand toifadagi 100 nafar fuqaro ish bilan ta‘minlandi.

Majmuada yirik savdo tarmoqlarining filiallari, 10 ta yirik mahalliy va xorijiy brend ishlamoqda, 250 ta savdo do‘koni, fud-kort va bolalar maydonchasi joylashgan. Ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi yiliga 223 milliard so‘mni tashkil etmoqda.

E‘tiborlisi, majmuada kutubxona va kitob do‘koni ham tashkil etilgan.


Loyihaning ikkinchi bosqichi sifatida mingta savdo shoxobchasini o‘z ichiga olgan, qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga ixtisoslashgan uch qavatli “Ekobozor” qurilishi rejalashtirilgan. Natijada 2 mingta yangi ish o‘rni yaratiladi.

Prezidentimiz majmua faoliyatini bilan tanishib, tashrif buyurganlar bilan samimiy muloqot qildi. Xizmatlarni kompleks yondashuv asosida yanada rivojlantirish, bunday markazlarni boshqa hududlarda ham ko‘paytirish zarurligini ta‘kidladi.

Shu bilan davlatimiz rahbarining Jizzax viloyatiga tashrifi yakunlandi.

Yiyoungulla JONIBEKOV,
Izrom AVVALBOYEV,
Abdulaziz RUSTAMOV,
Abduljalol QAYUMOV,
O‘zA maxsus muxbirlari

Gazetxon mulohazasi



Yoshim yetmish beshda. Bekobod tumanining “Oqtepa” mahalla fuqarolar yig‘inida yashayman. Keksas bir fuqaro sifatida mahallam, qishlog‘imiz, tumanimizda bo‘layotgan o‘zgarishlarni muntazam kuzatib boraman. Ba‘zan muammolardan ko‘nglim ranjisa, ba‘zan islohotlarni, o‘zgarishlarni ko‘rib, astoydil quvonaman.

To‘g‘risini aytсам, tumanimizda so‘nggi bir-ikki yilda juda katta ishlar qilindi. Sirdaryo ustida bir necha o‘n yillardan burun to‘xtab qolgan ko‘priq qurilishi nihoyasiga yetdi. Natijada tumanning Navoiy va G‘alaba qishloqlari aholisining uzog‘i yaqin bo‘ldi. Shu paytga qadar bu punktlarda yashovchi odamlar tuman markaziga kelish uchun qirg‘-ellik kilometr yo‘l bosardi. Shu shni Sirdaryo viloyatidagi qarindoshlarinikiga borib kelish ham osonlashgan.

Yaqin-yaqingacha tumanimiz markazi Zafar shaharchasidagi ko‘p qavatli uylar holatiga qarab bo‘lmasdi. Ular ham ta‘mirlanib, tuman markazi obod bo‘lishga aylandi. Har safar Zafarga yo‘lim tushganda, ishlasa, o‘zgartirsa bo‘lar ekan-ku, deyman. Nega shuncha yillardan buyon shu oddiy ishlar ham qilmaganidan afsuslanaman.

Hozir “Oqtepa” mahalla fuqarolar yig‘inimizning yangi binosi qurilishi davom etmoqda. Eski bino abgor ahvolga kelib qolgan bo‘lsa-da, shu kungacha hech kim bunga e‘tibor bermagandi.

Shu o‘rinda mahallamiz bilan bog‘liq yana bir yangilikni aytib o‘tmasam bo‘lmas. Yaqin kunlarda qishlog‘imizda yangi vrachlik punkti binosi foydalanishga topshiriladi. Bu mahallamiz chiroiyiga chiroy qo‘shish bilan birga, tibbiyot yanada yaxshilanishiga xizmat qiladi, albatta. QVP zamonaviy tibbiy uskunalar

bilan ham jihozlanadi. Natijada tuman va viloyat markaziga davolanish uchun boruvchi bemorlar soni kamayadi. Bu mahallamizga toza ichimlik suv keladi, degan gap chiqqaniga ancha bo‘ldi. Lekin tortib kelingan quvurlarni quduqqa ulash uzoq vaqtdan buyon hal etilmayotgandi. Bu ish ham oxiriga yetkazilib, yaqinda mahalladoshlarimiz toza ichimlik suv icha boshladi.

Ko‘pchilik yoshlar xoriyga ish izlab ketib qolayotganidan ko‘p nolishadi. Bu bor gap. Lekin har bir MFY, tuman yoki viloyat rahbari bu muammoning oldini olish, yangi ish o‘rinlari yaratish bilan astoydil shug‘ullansa, masalani hal etish mumkin. Qishlog‘imiz yonida tashlandiq yer bor edi. Atrofi chiqindixonaga aylangandi. Ushbu hudud obodonlashtirilib, paxta qabul qilish punkti va zavod qurildi. Natijada bekor yurgan yuzlab yoshlar, aholi ishli bo‘ldi. Bu degani, o‘nlab oilaning tirikchiligi yaxshilandi, ko‘pchilik xoriyga ketmay, farzandlari tarbiyasi bilan shug‘ullanmoqda.

Shu o‘rinda yana bir gapni alohida ta‘kidlashim lozim. Tumanimizning “Pastki Kerayit” MFYda yashovchi Najmiddin Xudoyqulov ancha paytdan buyon qon bosimi balandligi va belidagi grijadan ozor chekardi. Bormagan joyi, uchramagan rahbari qolmadi. Lekin hech kimdan najot topmadi. Nurafshonga,

Toshkentga borib davolanay desa, qo‘li kalta. Shu tarzda yillar o‘tdi. Najmiddin davlatimiz e‘tibori va ko‘magi bilan o‘zini ancha o‘nglab oldi.

Qararg, shuncha paytdan buyon hal bo‘lmagan ishi bir pasda bitdi. Bemorga Toshkentga, Samarqandga borib davolanishiga yordam ko‘rsatildi. Nogironlik aravachasi olib berildi. U bugun tor mutaxassisli shifokorlar nazoratida. Ayni paytda Najmiddin o‘zgalarning yordamisiz nogironlik aravachasida o‘zi harakat qilmoqda. Ko‘rsatilgan e‘tibor, yordamdan xursand. Eng muhimi, tumanda Najmiddinga o‘xshagan ko‘plab bemorlar, muhtojlarga beg‘araz yordam berildi.

Mamlakatimizda yuritilayotgan siyosatning maqsadi ham shu: xalq davlatga emas, davlat xalqqa xizmat qilishi kerak. Najmiddin Xudoyqulov va unga o‘xshagan bemorlar, yordamga muhtojlar bilan bo‘lgan holatda davlatimiz rahbari aytayotgan, talab qilayotgan “inson qadri”ni, ijtimoiy himoyaning yaqqol namunasi ko‘rdim.

Bekobod qadim yurt, sanoat, qishloq xo‘jaligi, qo‘yingki, barcha sohalar rivojlanayotgan tuman. Ayniqsa, so‘nggi yillarda ulkan ishlar qilindi. Yuqorida aytganlarim — mahallalardagi ayrim o‘zgarishlar bunga misol. Lekin aslida tumanda qilinayotgan ishlarning ko‘lamí beqiyos. Demochimanki, rahbarlar halol bo‘lsa, xalqim, yurtim deb yonib ishlasa, har qanday qiyinchiliklarni yengish, ko‘zlangan maqsadga erishish mumkin ekan.

Mirzaqul BERDIQULOV,
pensioner

Haftalik

Prezidentimizning 2024-yil 26-avgustdagi “Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash choralarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonida yurtimizda har yili dekabr oyining birinchi haftasida “Fuqarolik jamiyati haftaligi” o‘tkazilishi belgilangan. Shu kunlarda ushbu tadbir uyushqoqlik bilan tashkil etilmoqda.

Parlament a‘zolari, davlat idoralari va fuqarolik jamiyati institutlari vakillari, xorijiy ekspertlar ishtirok etayotgan haftalik dastlab fuqarolik jamiyatining 1500 nafardan ortiq vakilini jalb etgan holda mamlakatimizning barcha hududlarida o‘tkazildi. Bu jarayonda saralangan taklif va tashabbuslar asosida poytaxtimizda tadbirlar davom etmoqda.

So‘nggi yillarda fuqarolik jamiyati institutlari uchun yangi davr boshlandi. 2023-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda birinchi marotaba fuqarolik jamiyati institutlariga bag‘ishlangan alohida bob kiritildi, jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlar, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, omamaviy axborot vositalari fuqarolik jamiyatining asosini tashkil etishi belgilab qo‘yildi.

Joriy yilda sohaga oid 20 ga yaqin me‘yoriy-huquqiy hujjat qabul qilindi. Xususan, 2025-yil 21-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi qonun bilan fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatiga daxldor 10 ta qonunga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasi, 2021-2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi, Prezidentimizning “Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni yangi O‘zbekistonda erkin va kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish borasida keng ko‘lamli va shiddatli islohotlarning amalga oshirilishiga xizmat qilmoqda.

Fuqarolik jamiyati institutlarining muhim tashabbus va loyihalarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning shaffof va sog‘lom raqobat tamoyiliga asoslangan yangicha tizimi yaratildi. Oliy Majlis huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi qayta tashkil etildi. Jamoat fondi mablag‘larini boshqarish bo‘yicha parlament komissiyasi faoliyatini boshladi.



Xususan, joriy yildan parlament komissiyasi a‘zolari mahalliy kengash deputatlari bilan birgalikda aholi bilan muloqotlar tashkil etgan holda ijtimoiy soha va mahallalardagi aniq muammolarni o‘rganib, ularning manzilli va samarali yechimiga qaratilgan davlat granti va ijtimoiy buyurtmasi tanlovlarini e‘lon qilish jarayoni boshlandi. Birgina joriy yilning o‘zida fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlashga 1 trillion 200 milliard so‘m jalb qilindi.

Fuqarolik jamiyati institutlari muhim strategik hujjatlar, davlat dasturlari ijrosini monitoring



qilish hamda bajarishda bevosita ishtirok etmoqda. Hududlarda saqlanib qolayotgan, ijtimoiy ahamiyatga ega muammolarning manzilli va samarali yechimiga qaratilgan loyihalarni amalga oshirmoqda.

Soha faoliyati samaradorligini oshirishda kadrlar salohiyati muhim o‘rin tutadi. Shu bois, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasida tashkil etilgan o‘quv kurslarida 2021-2025-yillarda nodavlat notijorat tashkilotlarning 750 xodimi malaka oshirdi.

Jurnalistlar o‘rtasida har yili an‘anaviy o‘tkazib kelinayotgan “Oltin qalam” milliy mukofoti uchun xalqaro tanlovda fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini yoritish yo‘nalishida nominatsiya joriy etildi.

Bir so‘z bilan aytganda, mamlakatimizning har tomonlamma va jadal rivojlanishida fuqarolik jamiyati institutlarining roli va ahamiyatini tubdan oshirish, ularning davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari bilan hamkorligini kuchaytirish bo‘yicha tizim yaratiladi.

Haftalik doirasida nodavlat notijorat tashkilotlar milliy forumi, nogironligi bo‘lgan shaxslar tomonidan tayyorlangan mahsulotlar yarmakasi, Oliy Majlis palatalari, Adliya vazirligi rahbariyati bilan uchrashuv va muloqot, xalqaro konferensiya, aksiyalar, fuqarolik jamiyati institutlarini rag‘batlantirish maqsadida “Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga qo‘shgan hissasi uchun” ko‘krak nishoni, “Fuqarolik tashabbusi” milliy mukofoti, “Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga hissa qo‘shgan eng yaxshi davlat organi”ni taqdirlash marosimi kabi tadbirlar o‘tkazilishi rejalashtirilgan.

Shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlarning muhim tashabbuslarini moliyalashtirish maqsadida “Maqsadli loyihalar” aksiyasi o‘tkaziladi hamda ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalar qamrovini kengaytirish va amalga oshirish borasida o‘zaro fikr almashiladi.

Umuman olganda, haftalik davlat organlarining fuqarolik jamiyati institutlari bilan samarali va konstruktiv muloqot mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish, nodavlat notijorat tashkilotlar ehtiyojlarini tizimli tahlil qilish hamda davlat va jamiyatni yanada rivojlantirishning muhim masalalari bo‘yicha o‘zaro fikr almashish, istiqbolli tashabbuslarni ishlab chiqishda muhim maydon vazifasini bajaradi.

Bahor XIDIROVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



Konstitutsiya – inson qadri,
erkinlik, tenglik va adolat garovi!

KONSTITUTSIYAVIY ODIL SUDLOV

YOXUD HUQUQIY-DEMOKRATIK DAVLAT, ADOLATPARVAR JAMIYAT BARPO ETISH YO‘LIDA



Mirzo Ulug‘bek ABDUSALOMOV,
O‘zbekiston Respublikasi
Konstitutsiyaviy sudi raisi,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan
yurist

Boshlanishi 1-betda

Konstitutsiya va qonun ustuvorligi

Bugun Konstitutsiyamizning xalqchil tamoyil va normalarini hayotga izchil tatbiq etish bo‘yicha tizimli tadbirlar ko‘rilmoqda. Ayniqsa, jamiyat va davlatni modernizatsiya qilish, hayotning siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma‘naviy-ma‘rifiy negizlarini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish, konstitutsiyaviy qonuniyligni mustahkamlash bo‘yicha qilinayotgan izchil ishlar yuksak samara bermoqda.

Davlatimiz rahbarining 2023-yil 8-maydagi “Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni bilan 89 bandedan iborat muhim chora-tadbirlar dasturining tasdiqlangani bosh qonunimizning ustuvor g‘oyalari ro‘yobga chiqarish va normalarini hayotga tatbiq etishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini so‘zsiz va to‘liq amalga oshirish, unda mustahkamlangan ustuvor prinsiplarni yangi O‘zbekiston ulug‘vor g‘oyasiga hamohang tarzda ro‘yobga chiqarish, davlat organlarining faoliyatini yangicha konstitutsiyaviy-huquqiy sharoitlarda yo‘lga qo‘yish, fuqarolar o‘z hayotida xalq Konstitutsiyasi ruhini yaqol his etishini ta‘minlash maqsadida yuksak samarali ishlar qilinayotganiga xalqimiz guvoh bo‘lib turibdi.

Davlatimiz rahbarining “Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston” asarida alohida ta‘kidlanganidek: “Biz uchun Yangi O‘zbekiston — huquqiy, adolatli qonunlar amal qiladigan, mustaqil sudlar odil qarorlar chiqaradigan, Konstitutsiya va qonun ustuvorligi ta‘minlangan davlat”.

Maqsad va vazifalari hamda butun faoliyati faqat Konstitutsiya ustuvorligini ta‘minlashga yo‘naltirilgan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi ham mamlakatimizdagi islohotlar natijadorligini ta‘minlashda muhim vazifani bajarmoqda.

Sud shaklidagi ushbu konstitutsiyaviy nazorat organi tashkil etilganiga bu yil o‘tuz yil to‘ldi. Ushbu sana mamlakatimizda demokratik jamiyat barpo etish va milliy davlatchiligimiz rivojida muhim o‘rin tutadi. Yangi O‘zbekistonda huquqiy-demokratik davlat barpo etish jarayonida, yurtimizda adolatparvar jamiyatni mustahkamlashda konstitutsiyaviy odil sudlovning o‘rni tobora mustahkamlanib bormoqda.

Konstitutsiyaviy sud faoliyatining ilk kunlaridan qonunlarda belgilangan vakolati doirasida mustaqil O‘zbekistonda konstitutsiyaviy norma va prinsiplarning asosiy himoyachisi va targ‘ibotchisi, huquq ustuvorligi va adolat g‘oyalariining amaliy kafiliga aylandi. Mustaqillik yillarida Konstitutsiyaviy sud qabul qilgan qarorlar, ajrimlar va xulosalar Konstitutsiya norma va prinsiplarning respublikamizning butun hududida bevosita amal qilishini ta‘minlash barobarida unga so‘zsiz itoat qilish hissinii shakllantirdi. Eng muhimi, mamlakatimiz huquq tizimida umumiy yurisdiksiya sudlaridan farqli o‘laroq konstitutsiyaviy odil sudlov instituti shakllantirildi.

Konstitutsiyaviy sudning faoliyati davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyati tarmoqlari tomonidan qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarining Konstitutsiyaga zid bo‘lmashligini amalda ta‘minlab, jamiyatda

“

YANGI O‘ZBEKISTON SHAROITIDA MUHIM VAKOLATLARGA EGA BO‘LDI, TA‘BIR JOIZ BO‘LSA, QAYTA SHAKLLANTIRILDI. 2017-YILGA QADAR KONSTITUTSIYAVIY SUD BOSH QONUNGA MUVOFIQ JAMI TO‘RTTA VAKOLATGA EGA BO‘LGAN. ISLOHOTLAR NATIJASIDA UNGA QO‘SHIMCHA YANA BESHTA VAKOLAT BERILDI.

Konstitutsiya, qonun, huquq ustuvorligi kabi konstitutsiyaviy tuzum negiziga xos eng muhim prinsiplarning amalga qaror topishida ulkan ahamiyat kasb etmoqda.

Xususan, Konstitutsiyaviy sud faoliyatining dastlabki davridan boshlab qator qonun va qarorlar, jumladan, mahalliy davlat hokimiyati organlarining normativ xarakterdagi hujjatlarini bosh qonun normalariga muvofiqligi nuqtayi nazaridan o‘rganishga kirishib, zarur hollarda ushbu normativ hujjatlarini qabul qilgan davlat organlariga tegishli tavsiyalar berib bordi. Shu tariqa O‘zbekiston Respublikasi davlat boshqaruv tizimida konstitutsiyaviy qonuniyligni ta‘minlashning yangi vositasi — konstitutsiyaviy odil sudlovni amalga oshirish mexanizmi qaror topdi. Davlat va jamiyatda konstitutsiyaviy-huquqiy madaniyat darajasini yuksaltirishga mas‘ul institut vujudga keldi. Qonun ijodkorligi jarayonlarida hamda butun mamlakat miqyosida bir xil huquqni qo‘llash amaliyotida qonuniylk prinsipiga qat‘iy rioya qilish talabi davlat va jamiyat hayotining kun tartibidan muqim o‘rin oldi.

Konstitutsiyaviy qadriyatlar himoyachisi

Davlatimiz rahbari 2022-yil 20-iyun kuni bo‘lib o‘tgan Konstitutsiyaviy komissiya a‘zolari bilan uchrashuvda “Konstitutsiyaning oliy yuridik kuchga ega ekani, to‘g‘ridan to‘g‘ri qo‘llanishi, insonning asosiy huquq va erkinliklari ajralmas va daxlsiz bo‘lib, har kimga tug‘ilganidan boshlab tegishli ekani qayd etilmoqda. Bularning barchasi Asosiy qonunning


Ikkinchidan, Konstitutsiyaviy sudga murojaat qiluvchi subyektlar doirasi kengaytirildi. Ilgari Konstitutsiyaviy sudga asosan Oliy Majlis palatalari, Prezident, Oliy sud va Bosh prokuror kabi subyektlar murojaat qilishi mumkin edi. Yangi qonunga muvofiq esa qator yangi subyektlarga ham murojaat huquqi berildi. Jumladan, Hisob palatasi a‘zolari, Inson huquqlari bo‘yicha milliy markaz, Prezident huzuridagi Biznes-ombudsman ham Konstitutsiyaviy sudga belgilangan tartibda murojaat kiritish huquqiga ega bo‘ldi.

Yana bir muhim vakolat fuqarolar va yuridik shaxslarga konstitutsiyaviy shikoyat huquqi berilishi bo‘ldi. Endi fuqarolar yoki tashkilotlar o‘z huquq va erkinliklarini buzayotgan deb hisoblagan qonun hujjati bo‘yicha bevosita Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilish huquqiga ega.

Mutaxassislarining ta‘kidlashicha, bu yangilik tufayli shaxsiy huquqiy himoya mexanizmi mustahkamlanib, sud adolatini tiklash uchun yanada ochiq va xalqchil tuzilmaga aylandi. Darhaqiqat, Konstitutsiyaviy sudga jismoniy va yuridik shaxslarning murojaat qilish huquqi berilishi konstitutsiyaviy nazoratni xalq manfaatlariga yanada yaqinlashtirdi.

Inson qadri uchun

Yangi O‘zbekiston sharoitida Konstitutsiyaviy sud konstitutsiyaviy nazorat organi bo‘lish barobarida mamlakatimizda “Inson qadri uchun” tamoyili asosida amalga oshirilayotgan huquqiy islohotlarga, to‘g‘ridan to‘g‘ri amal qiladigan yangi tahrirdagi Konstitutsiya ruhi va talablariga



himoyachisi bo‘lgan Konstitutsiyaviy sud faoliyatini yanada takomillashtirishni taqozo etmoqda. Mazkur sud boshga sudlardan farqli o‘laroq, faqat Konstitutsiyaga bo‘ysunadi hamda Asosiy qonunning ustunligi prinsipini ta‘minlaydi”, deb ta‘kidlagan edi.

Darhaqiqat, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi aynan yangi O‘zbekiston sharoitida muhim vakolatlariga ega bo‘ldi, ta‘bir joiz bo‘lsa, qayta shakllantirildi. 2017-yilga qadar Konstitutsiyaviy sud Bosh qonunga muvofiq jami to‘rtta vakolatga ega bo‘lgan. Islohotlar natijasida unga qo‘shimcha yana beshta vakolat berildi.

Ayniqsa, 2021-yil 27-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida”gi konstitutsiyaviy qonun Konstitutsiyaviy sudning vakolatlari, mustaqilligi va institutsional rolini sezilarli darajada kuchaytirdi. Bu qonun sudning huquqiy maqomini mustahkamlash bilan birga fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari buzilgan hollarda ta‘sirchan va samarali himoya mexanizmlarini joriy etish imkoniyatini yanada kengaytirdi.

Ushbu qonun Konstitutsiyaviy sud faoliyatini tubdan isloh qilib, demokratik prinsiplarga muvofiq yanada ochiq va samarali konstitutsiyaviy nazorat tizimini joriy etdi. Birinchidan, sud tarkibi sezilarli ravishda kengaytirildi. Konstitutsiyaviy sud sudyalari soni rais va o‘rinbosarini qo‘shgan holda yetti nafardan to‘qqiz nafargacha oshirildi. Bu o‘zgarish sudda ish hajmining oshishi va alohida hay‘atlarda ishlash zaruratini hisobga olgan holda qabul qilindi. Endi sud muhokamalarida ko‘proq sudyalari ishtirok etishi ta‘minlandi.

hamohang, xalqchil faoliyat yuritmoqda. Sud qarorlari qonun ijodkorligi amaliyotiga, huquqiy islohotlar konstitutsiyaviy standartlarga mos rivojlanishiga ko‘maklashmoqda. Bugun Konstitutsiyaviy sudning asosiy vazifasi — inson qadri, huquq va erkinliklari ustuvor bo‘lgan jamiyatda Konstitutsiya va qonunlarga og‘ishmay rioya qilish, adolat, insonparvarlik, qonuniylk prinsipini ta‘minlashdir.

Konstitutsiyaning yangilanishi, sud-huquq tizimini isloh qilish, jamiyatda ochiqlik va javobgarlik muhitini shakllantirish kabi tashabbuslar fuqarolarning davlatga ishonchini mustahkamlamoqda. Inson qadri uchun tamoyili nafaqat davlat siyosatida, balki har bir islohotning mazmun-mohiyatida, xususan, konstitutsiyaviy nazorat tizimini takomillashtirish jarayonida ham aks etmoqda.

Sud-huquq islohotlari Konstitutsiyaviy sud faoliyatidagi quyidagi muhim jihatlarda o‘z ifodasini topdi: birinchidan, inson huquqlarini himoya qilishda sudning ta‘sirchanligini oshirish, ikkinchidan, qonun ijodkorligi jarayoniga huquqiy-ekspertlik, qabul qilingan hujjatlarining konstitutsiyaviyligini tekshirish hissasini yanada kuchaytirish, uchinchidan, Konstitutsiyaviy sud qarorlarining ochiqligi, shaffolligi va ijtimoiy ahamiyatini ta‘minlash, to‘rtinchidan, fuqarolarning sudga murojaat qilish imkoniyatini kengaytirish, jumladan, onlayn murojaatlarga sharoit yaratish.

Mazkur tendensiyalar O‘zbekistonda konstitutsiyaviy adolat sohasida shakllangan huquqiy tizimning barqaror va zamonaviy asoslarga ega ekanini ko‘rsatadi. Konstitutsiyaviy sudning o‘tuz yillik tajribasi



mamlakatimizda konstitutsionalizm tamoyillari izchil qaror topayotgani, demokratik islohotlar huquqiy poydevorga tayinlangan holda amalga oshirilayotganining yaqqol namoyonidir.

Xalqaro e‘tirof

Yangi O‘zbekistonning jahon hamjamiyatida tobora yuksalib borayotgan mustaqil pozitsiyasi va izchil siyosiy yo‘li ochiq, pragmatik va inson qadriga asoslangan davlat siyosati samarasidir. Zero, mamlakatimiz har doim tinchlik va barqaror taraqqiyot sari intiladi.

Tashqi siyosatimizdagi amaliy qadamlar qardosh qo‘shni mamlakatlar bilan do‘stona munosabatlarni mustahkamladi, Markaziy Osiyoda hamjihatlik muhitini yaratdi, xalqaro tashkilotlar bilan izchil hamkorlik yo‘lga qo‘yildi. Natijada yurtimiz nufuzi sezilarli darajada oshdi.

Bu jarayon nafaqat iqtisodiy yoki siyosiy sohada, balki huquqiy institutlar faoliyatida ham o‘z aksini topmoqda. Konstitutsiyaviy sud faoliyati bugun O‘zbekistonning xalqaro huquqiy maydondagi nufuzining muhim ko‘rsatkichlaridan biriga aylandi. Konstitutsiyaviy sudning demokratik islohotlar to‘lqinida shakllangan huquqiy asoslari, ochiq va oshkora faoliyati, inson huquq va erkinliklarini ta‘minlashga sadoqati va qonun ustuvorligini ta‘minlashdagi tajribasining xalqaro miqyosdagi yana bir e‘tirofi bo‘ldi.

2025-yil 11-noyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi tashkil topganining o‘ttiz yilligi munosabati bilan “Konstitutsiyaviy islohotlar va konstitutsiyaviy nazorat institutini rivojlantirishning dolzarb masalalari” mavzusida yirik xalqaro anjuman bo‘lib o‘tdi. Tadbirda Oliy Majlis Senati, Qonunchilik palatasi, Inson huquqlari bo‘yicha



vakil (Ombudsman), Oliy sud, Sudyalari oliy kengashi, Bosh prokuratura, Adliya vazirligi rahbarlari va vakillari, mahalliy mutaxassislar va ekspertlar, shuningdek, o‘ndan ortiq xorijiy mamlakatning konstitutsiyaviy sudlari rais va sudyalari hamda o‘ttizdan ortiq ekspert, xususan, Germaniya hamda YXHTning O‘zbekistondagi loyihalar koordinatori, Konrad Adenauer jamg‘armasi va Toshkent davlat yuridik universiteti professor-o‘qituvchilari hamda OAV vakillari ishtirok etdi.

Xalqaro konferensiya doirasida 2026-2027-yillarda Osiyo konstitutsiyaviy

sudlari va ekvivalent institutlar assotsiatsiyasiga raislik Tailand qirolligi Konstitutsiyaviy sudidan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi prezidenti Naxxarin Mektrayrat assotsiatsiya bayrog‘ini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudiga topshirar ekan: “Ishonaman, O‘zbekiston tomonini raisligida Osiyo konstitutsiyaviy sudlari mintaqaviy tashkiloti hamkorligi yanada mustahkamlanadi. Assotsiatsiya qonun ustuvorligini ta‘minlashda yanada muhim o‘rin tutishiga hamda inson huquqlarini himoya qilishda Osiyomizning unga a‘zo barcha — yigirma ikki davlati konstitutsiyaviy nazorat organlarini umumiy maqsadlar yo‘lida birlashtiradi”, deb alohida ta‘kidladi.

Bu, avvalo, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti yuritayotgan adolatli va oqilona siyosatning e‘tirofi, yangi O‘zbekistondagi keng ko‘lamli islohotlarga ishonchdir. Shuningdek, nafaqat huquqiy sohadaqli ulkan yutuq, balki mamlakatimizning xalqaro nufuzi, demokratik qadriyatlarga sadoqati va qonun ustuvorligini ta‘minlashdagi tajribasining xalqaro miqyosdagi yana bir e‘tirofi bo‘ldi.

Shaffof va xolis tizim

Har bir taraqqiyot bosqichida amalga oshirilgan yuksak samarali islohotlar keyingi bosqich uchun tayanch vazifasini o‘taydi. Yangi O‘zbekistondagi o‘zgarishlar ham ana shunday izchil tahlil, strategik yondashuv va xalq manfaatini ustuvor qo‘yish siyosati samarasidir.

Shu nuqtayi nazardan, bosib o‘tilgan yo‘lni tahlil qilish faqat natijalarni sanab o‘tish emas, balki kelgusi strategiyani belgilash, muammolarni bartaraf etish va mamlakat taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘tarish uchun zarur shartdir. Bugun mamlakatimizdagi barcha soha, jumladan, sud-huquq tizimidagi keng ko‘lamli islohotlar yangi O‘zbekistonning huquqiy poydevorini har tomonlama mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Qonun ustuvor bo‘lgan adolatli jamiyatda taraqqiyot ta‘minlanadi. Shu maqsadda sud hokimiyatining mustaqilligi amalda

mustahkamlanmoqda, sudyalor korpusini shakllanishda shaffof va xolis tizim joriy etildi, fuqarolarning sudga murojaat qilish huquqlari kengaymoqda. O‘zbekistonning bugungi sud tizimi raqamli texnologiyalar va elektron adolat tizimi orqali odil sudlovning shaffolligi va samaradorligini ta‘minlamoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudning o‘rni va maqomi Konstitutsiyada aniq belgilangan, u davlat hokimiyatining barcha tarmoqlari faoliyatida Konstitutsiya ustuvorligini ta‘minlovchi konstitutsiyaviy organdir. Konstitutsiyaviy sudning qarorlari va xulosalari davlat organlari va fuqarolar uchun majburiy kuchga ega. Mamlakatimizda huquqiy tizimning barqarorligi va izchilligini ta‘minlashda muhim o‘rin tutadi. Konstitutsiyaviy nazorat instituti, konstitutsiyaviy odil sudlov bu jarayonlarda fuqarolar huquq va erkinliklarining asosiy kafolati mexanizmi. Uning bosh vazifasi qonunchilik, ijro va sud hokimiyatlari faoliyatida Konstitutsiya ustuvorligini ta‘minlash, inson huquq va erkinliklariga daxl etuvchi har bir qarorning konstitutsiyaviy asosga ega bo‘lishini kafolatlashdir.

Mamlakatimizdagi konstitutsiyaviy islohotlar huquqiy tizimini yangilash barobarida jamiyat ongini, fuqarolar va davlat o‘rtasidagi munosabatlarni, inson qadriga yuksak ishonchini tubdan o‘zgartirgan ulkan jarayondir. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada davlatning ijtimoiy mohiyati, inson qadri, adolat va hamjihatlik tamoyillari mustahkamlandi. Bu islohotlar xalqimiz irodasi, yuksak huquqiy ongi va “Inson qadri uchun” degan ezgu g‘oyaning amaliy ifodasidir.

Yangi O‘zbekiston sud-huquq tizimi yangilanish bosqichiga qadam qo‘ygan bir paytda Konstitutsiyaviy sud ham zamon talablariga mos holda rivojlanishning yangi pog‘onasiga ko‘tarilmoqda. Biz faoliyatimizni raqamli texnologiyalar, innovatsion yondashuvlar va adolatli konstitutsiyaviy sudlov tamoyillariga tayangan holda yangi bosqichga olib chiqish yo‘lidamiz. Ayni shu maqsadda Konstitutsiyaviy sud faoliyatini zamonaviy talablar asosida yanada takomillashtirish, uning shaffolligi va fuqarolar uchun ochiqligini ta‘minlashga qaratilgan ishlar izchil davom ettirilmoqda. Bunday sa‘y-harakatlar nafaqat konstitutsiyaviy nazorat samaradorligini oshirish, balki yangi avlod odil sudlov madaniyatini yaratish, adolat va qonun ustuvorligini hayotimiz mezoniga aylantirishda muhim qadam bo‘lishi shubhasiz.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudning o‘ttiz yilligi sanasi mamlakatimiz Konstitutsiyasining o‘ttiz uch yilligi bilan hamohang nishonlanayotganida muhim uyg‘unlik bor. Chunki Konstitutsiyaviy sud butun faoliyati davomida Konstitutsiya ustuvorligini ta‘minlaydi. Pirovardida inson hayoti, erkinligi, sha‘ni va qadr-qimmatli oliy qadriyat bo‘lgan insonparvar demokratik davlatni, ochiq va adolatli jamiyatni barpo etish borasidagi konstitutsiyaviy qadriyatlarni ro‘yobga chiqarishga xizmat qilmoqda.

Barchamiz jonajon O‘zbekistonimizni jahon miqyosida barcha havas qiladigan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat sifatida yangidan barpo etishda davlatimiz rahbariga kamarbasta bo‘lib, yagona ahil millat sifatida sa‘y-harakatlarni birgalikda amalga oshiramiz. Zero, shunday bo‘lsakkin yurtimizda tinchlik va osoyishtalik, farovonlik va ahilik hukm suradi, taraqqiyotimiz barqaror va bardavom bo‘ladi!

Mamlakatimiz Konstitutsiyasi huquq va manfaatlarimizni himoya qilishi, demokratik tamoyillarni ta’minlovchi asosiy manba ekanini yaxshi bilamiz. Ammo Konstitutsiya bilan belgilangan aynan qanday huquqlarimiz borligini har doim ham ayta olmaymiz. Tabiiyki, huquqlarimizni bilmaslik ularning buzilishiga e’tiborsizligimizni keltirib chiqaradi.



Ulug‘bek RAHIMOV,
“Kids Plate Distribution”
MCHJ rahbari

Tadbirkor sifatida ayni shu jihatlariga o‘zim duch kelganman. Ochig‘ini aytganda, avvallari qonun bilan belgilangan huquqlarimizni bilsak ham amalda ularning ishlamasligi hafsalamizni pir qilgan vaqtlar bo‘lgan. Bugun esa aksi — yangi tahrirdagi Konstitutsiya moddalarini yoddan aytlamasak-da, ularning amaldagi kafolatlari o‘z hayotimiz, faoliyatimizda his etyapmiz.

Tadbirkor, qolaversa, Tadbirkorlikni rivojlantirish kengashi a’zosi sifatida bugun ishbilarmonlar huquq va manfaatlari qonun doirasida mustahkamlanibgina qolmay, faoliyatimizda faol aks etayotganidan quvonaman. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada “Davlat tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini kafolatlaydi”, “Tadbirkorlar qonunchilikka muvofiq har qanday faoliyatni amalga oshirishga va o‘z faoliyati yo‘nalishlarini mustaqil ravishda tanlashga haqli”, deyiladi.

Balki keyingi yillarda ish boshlagan yosh ishbilarmonlar bilmas, ammo uzoq yillardan buyon biznes sohasida faoliyat yuritayotgan

insonlar mazkur kafolatlar amaliyotda ishlayotgani, bugun istalgan tadbirkor haqiqatan davlat himoyasida ekani qanchalik muhimligini yaxshi biladi. Chunki biz qog‘ozda yozilgan bu kafolatlar amalda ishlamagan davrlarga guvoh bo‘ldik. Ilk tadbirkorligimni 2009-yilda marketing xizmatlarini ko‘rsatishdan boshlagan bo‘lsam, faoliyatimga asossiz to‘siqlarni ham, keraksiz va keti uzilmaydigan tekshiruvlar, bozordagi nosog‘lom raqobatni ham ko‘rdim. Shunga qaramay, ishlashda, rivojlanishda davom etdik. Bugun esa tadbirkor sifatida haqiqiy ma’nodagi erkinlikni, huquqlarim kafolatlanganini his qilaman, avvalgidek xavotir yoki qo‘rquvdan asar ham yo‘q. Aksincha, ortimizda Prezidentimiz turibdi degan ishonch bilan faqat oldinga intilamiz.

2018-yilda bir necha korxonani birlashtirib, MCHJ tashkil etdik. Asosiy faoliyatimiz yarim tayyor oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish, chakana va ulgurji savdodan iborat. Korxonada 70 turdan ortiq mahsulot ishlab chiqariladi. Qo‘shni davlatlarga eksportni yo‘lga qo‘yish harakatidamiz. Ishlash uchun qulay imkoniyat, sharoit bo‘lsa, tadbirkor rivojlanib boraveradi. Bugun bizni ilhomlantirayotgan jihat shu. Buning ortidan 70 dan ortiq kishini ish bilan ta’minlaganmiz. Ular daromad topib, oilasini tebrataypti.

Hozir tadbirkorlik faoliyati daxlsizligi qonun bilan kafolatlangan. Bugun ishbilarmon odam har qanday tekshiruv kelganida o‘z faoliyatini davom ettirish huquqi borligini bilishi kerak. Ya’ni hatto tekshiruv vaqtida ham tadbirkorning faoliyatini cheklash qonundan taqiqlanadi. Faqatgina inson hayotiga xavf solishi mumkin bo‘lgan holatlar bundan mustasno. Mazkur huquq

BOSH QOMUSIMIZ — HUQUQ VA MANFAATLARIMIZ HIMOYACHISI



USHBU MAQOLANI
QORAQALPOQ TILIDA
HAM O‘QISH UCHUN
QR-KODNI SKANER
QILING!



nihoiyatda muhim. Chunki yaqin tariximizda istalgan turdagi tekshiruv sabab ishlab turgan tadbirkorning faoliyati to‘xtatib qo‘yilgan holatlar o‘zimizning boshimdan ham o‘tgan. Achinarlisi, tekshiruvlar noma’lum sabablarga ko‘ra, oylab davom etishi ortidan moddiy zarar ko‘rgan, faoliyatini qayta tiklolmay qolgan tadbirkorlar qancha. Bugun esa har qanday

tekshiruv vaqtida, hisob-raqami xatlangan holatda ham ishbilarmon o‘z faoliyatini davom ettirishga haqli, maosh, kommunal va boshqa birlamchi to‘lovlarini amalga oshirishi mumkin.

Huquqiy kafolat borasidagi katta o‘zgarishlar davlatimiz rahbarining har yili tadbirkorlar bilan o‘tkazilishi an‘anaga aylangan ochiq muloqoti davomida bildirilgan takliflar samarasi ham,

desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Masalan, tadbirkorlarning xususiy mulkini noqonuniy tortib olishga yo‘l qo‘ymaslik kafolati. To‘g‘ri, xususiy mulk daxlsizligi avvaldan bo‘lgan, ammo amalda deyarli ishlamagan yoki kimlarningdir manfaatiga ishlagan, xolos. Hozir hokimlik bo‘ladimi, boshqa davlat tashkiloti bo‘ladimi, tadbirkorning yer uchastkasi, binosi yoki uskunasi asossiz tortib olishga, ish faoliyatini to‘xtatib qo‘yishga haqli emas. Bordiyu shunday holatlar yuzaga kelgan taqdirda, ko‘rilgan zararni qoplab berish mexanizmi joriy etilgan.

Biznes egalari juda ko‘p e’tirof etadigan va tadbirkorning haqiqiy ma’nodagi erkin ishlashini ta’minlayotgan yana bir jihat — tekshiruvlarning turi qisqargani hamda sifat jihatidan o‘zgarishlardir. Avvallari o‘tkazilgan tekshiruvlarning ko‘pi sabab va maqsadsiz bo‘lgani, reja asosida har 3-4 yilda takroriy, faqatgina tadbirkorni ortiqcha qiyinashga qaratilganini ko‘pchilik yaxshi eslaydi. Bugun hech bir tashkilot o‘zidan o‘zi, tadbirkorni shunchaki tekshirmayapti. Ayrim talablar yuzaga kelgandagina tekshiruv belgilanadi. Agar tadbirkor to‘g‘ri ishlab, soliqlarni o‘z vaqtida to‘lab, qonundan tashqari harakat qilmasa, hech kim uning faoliyatiga aralashmaydi. Bu borada nazorat organlarining xavfni baholash tizimi samaradorligi, o‘z navbatida, boshqa tadbirkorlarni ham to‘g‘ri ishlashga rag‘batlantirayotgan juda kuchli mexanizm, deb bilaman.

Bizni doim qiyinab kelgan yana bir masala litsenziya va ruxsat berish xususiyatiga ega hujjatning nihoiyatda ko‘pligi hamda murakkabligi edi. Hozir shularning soni kamayib, rasmiylashtirish jarayonlari ancha soddalashtirildi. Hozir tadbirkor shu hujjatlardan birini olish uchun qaysidir tashkilotga borib, javobini oylab kutishiga hojat yo‘q. Elektron ariza topshiriladi va bu avtomatik ko‘rib chiqilib, javobi qonunchilikda belgilangan muddatlarda beriladi. Bu jihat bilan haqiqatan maqtansak arziydi.

Bugun tadbirkorning huquqiy manfaatlari kafolatlanishi faqatgina uning ishiga to‘sqinlik

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada
“Davlat tadbirkorlik va mehnat
qilish erkinligini kafolatlaydi”,
“Tadbirkorlar qonunchilikka
muvofiq har qanday faoliyatni
amalga oshirishga va o‘z faoliyati
yo‘nalishlarini mustaqil ravishda
tanlashga haqli”, deyiladi.

Mehnat munosabatlari



Dilfuza ABDULLAYEVA,
yuridik fanlar bo‘yicha
falsafa doktori, dotsent

Bugungi globalleshuv va raqobat kuchaygan davrda ish joyida tenglikni ta’minlash nafaqat ijtimoiy adolat talabi, balki mamlakatning iqtisodiy barqarorligi va taraqqiyotining muhim omiliga aylanmoqda. Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) diskriminatsiyani bartaraf etish, barcha xodimlarga teng imkoniyat yaratish bo‘yicha xalqaro standartlar ishlab chiqqan. Xususan, ish joyida kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik, barcha xodimlarga teng imkoniyat yaratish, adolatsiz ajratish holatlariga chek qo‘yish xalqaro huquqning asosiy prinsiplaridan.

Mehnat munosabatlardagi tenglik insonning asosiy konstitutsiyaviy huquqlaridan biri bo‘lib, u adolat, ijtimoiy barqarorlik va samarali mehnat bozorini ta’minlashning muhim omili hisoblanadi.

XALQARO STANDARTLARGA MOS TENGLIK

O‘zbekistonda ham so‘nggi yillarda mehnat sohasida keng qamrovli islohotlar olib borilib, inson qadri va uning mehnat huquqlarini himoya qilish bo‘yicha muhim huquqiy baza shakllantirilmoqda.

Xususan, Konstitutsiyada barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e’tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, mavqeidan qat’i nazar, qonun oldida tengligi mustahkamlangan. Shuningdek, har kim munosib mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlash, xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan qulay mehnat sharoitlarida ishlash, mehnati uchun hech qanday kamsitishlarsiz hamda mehnatga haq to‘lashning belgilangan eng kam miqdoridan kam bo‘lmagan tarzda adolati haq olish, ishsizlikdan qonunda belgilangan tartibda himoyalansiz huquqiga ega ekani belgilab qo‘yilgan.

Bundan tashqari, Mehnat kodeksida mehnat huquqlarining tengligi, mehnat va mashg‘ulotlar sohasida kamsitishni taqiqlash prinsipi belgilangan.

“Ayollar va erkaklar uchun teng huquqlar va imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi, “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi qonunlar ham mehnat sohasida kamsitishga yo‘l qo‘ymaslikni kafolatlaydi.

XMT mehnat sohasida kamsitishni bartaraf etishni insonning asosiy huquqlaridan biri sifatida belgilaydi. Bu borada ikkita asosiy xalqaro hujjat — Mehnat va ish turlari sohasida kamsitish to‘g‘risidagi hamda Teng haq to‘lash to‘g‘risidagi konvensiyalar katta ahamiyatga ega. Ulariga ko‘ra, irqi, jinsi, e’tiqodi, millati, ijtimoiy kelib chiqishi, siyosiy qarashlari yoki boshqa belgilarga ko‘ra kamsitish taqiqlanadi. Davlatdan ishga qabul qilish, haq to‘lash, lavozim bo‘yicha ko‘tarilish va mehnat



sharoitlarida tenglikni ta’minlash talab etiladi. Shuningdek, erkak va ayollarga teng qad-qimmatga ega mehnat uchun bir xil haq to‘lanishini kafolatlanadi.

Bu xalqaro hujjatlar davlatlar oldiga quyidagi vazifalarni qo‘yadi: kamsitishga qarshi huquqiy bazani mustahkamlash, nazorat mexanizmlarini shakllantirish va amaliy chora-tadbirlar orqali barqaror tenglik siyosati yuritish. Bugungi kunda xalqaro himoyaning zamonaviy tendensiyalari ishga qabul qilishda teng imkoniyat, ayollar va nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun alohida qo‘llab-quvvatlash dasturlari, “Workplace harassment” — ish joyida ta’qib va zo‘ravonlikka qarshi qat’iy siyosatdir.

Shu bilan birga, amalda qator muammolar ham saqlanib qolmoqda. Ayrim sohalarida ayollar mehnatiga yashirin cheklovlar, ishga qabul qilishda “tajriba” bahonasida tengsiz munosabat, nogironligi bo‘lgan kishi uchun infratuzilma yetarli emasligi, “Workplace harassment” holatlarini rasmiylashtirish va isbotlash shular sirasiga kiradi.

Mehnat sohasida kamsitishga qarshi

amaliy tavsiyalar sifatida ish beruvchilarga tashkilot ichki reglamentida “non-diskriminatsiya” siyosati bo‘lishi shartligi, kadrlar tanlashda avtomatlashtirilgan, shaffof tizimlardan foydalanish, “Workplace harassment”ga qarshi nol-talab siyosati hamda xodimlar uchun teng imkoniyatlar dasturlari mavjud bo‘lishi lozim. Xodimlar esa kamsitilishga duch kelganda, ariza berish huquqini bilishi, mehnat inspeksiyasiga murojaat qilishi, huquqiy yordam olish, dalillarni to‘plashi hamda ish beruvchining tenglik siyosatini o‘rganib chiqishi kerak.

Umuman olganda, mehnat munosabatlarda kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik — demokratik jamiyat, barqaror iqtisodiyot va inson qadri ustuvor biluvchi davlatning asosiy belgilaridan biri. Xalqaro me’yorlar va O‘zbekiston qonunchiligi bu borada mustahkam huquqiy paydevor yaratgan. Endilikda asosiy vazifa ushbu normalarning amalda to‘liq va samarali ishlashini ta’minlash, ish joylarida tenglik madaniyatini shakllantirish, har bir xodimning shaxsiy qadri va imkoniyatini himoya qilishdan iboratdir.

Dolzarb mavzu

Yurtimizda davlat boshqaruvida oshkoralikni ta’minlash, korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish va manfaatlar to‘qnashuvining oldini olishga qaratilgan ishlar ko‘lami tobora tizimli bo‘lib boryapti. Ushbu islohotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida korxonalar va tashkilotlarda zamonaviy komplyens nazorat tizimini joriy etish va takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

KORRUPSIYA -
TARAQQIYOT TUSHOVI

Shu maqsadda “O‘zbekgidroenergo” aksiyadorlik jamiyati ijro apparatida Komplyens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi tashkil etilgan.

Bundan tashqari, Prezidentimizning 2025-yil 21-apreldagi “Davlat organlari va tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalarini mustaqilligini ta’minlash hamda faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori asosida jamiyatning 9 ta filiali shtatlariga komplyens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishida bosh mutaxassis lavozimlari kiritildi.

Joriy yilda korrupsiyaga qarshi kurashini takomillashtirish hamda shaffoflikni kuchaytirish maqsadida “O‘zbekgidroenergo” AJda 21 banddan iborat chora-tadbirlar dasturi qabul qilindi. Har bir vazifaning ijrosi bosqichma-bosqich ta’minlanib, nazorat ishlari kuchaytirildi.

Korxonada qabul qilinayotgan barcha buyruq va hujjatlar qonuniyligi, shaffofligi hamda manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik tamoyillari asosida ekspertizadan o‘tkazilishi ta’minlanmoqda.

Novabr oyida o‘tkazilgan kuzatuv audit natijasiga ko‘ra, “O‘zbekgidroenergo” AJ faoliyati ISO 37001:2016 — “Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi” xalqaro standartlari talablariga to‘liq muvofiq ekani yana bir bor tasdiqlandi. Xalqaro sertifikatlovchi tashkilot tomonidan o‘tkazilgan tekshiruv jamiyatdagi komplyens nazorat tizimi barqaror hamda samarali yo‘lga qo‘yilganini ko‘rsatdi.

Ishda shaffoflik, halollik bo‘lishida xodimlar malakasi va tajribasi ham katta ahamiyat kasb etadi. Shu bois, joriy yilda jamiyatning 81 rahbar xodimi Adliya vazirligi, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va boshqa tashkilotlar tomonidan tashkil etilgan o‘quv kurslarida o‘qidi. Ularning 20 nafari maxsus sertifikatga ega bo‘ldi.

Shu bilan birga, komplyens nazorati yo‘nalishida ishlovchi xodimlar Yevropa Ittifoqi, Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati va Latviya Markaziy moliya agentligi bilan hamkorlikda tashkil etilgan o‘quv seminarlarda faol ishtirok etdi. Bular mutaxassislarining professional salohiyatini mustahkamlashga, korrupsiyaga nisbatan murosasiz kurashishga qaratilgan huquqiy ongini o‘stirishga xizmat qiladi, albatta.

Jamiyatda ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash maqsadida rasmiy veb-saytda “Ochiq ma’lumotlar” bo‘limi muntazam yangilanib, korxona faoliyatiga oid muhim hujjatlar va ma’lumotlar jamoatchilik uchun ochiq tarzda taqdim qilinmoqda.

“O‘zbekgidroenergo” AJda korrupsiyaning oldini olish, halollik muhitini yaratish va manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar davlat siyosatida belgilangan ustuvor yo‘nalishlar bilan uyg‘un ravishda davom etmoqda. Jamiyatda shaffoflikni ta’minlash, xalqaro standartlarga mos tizimni shakllantirish va jamoatchilik bilan ochiq muloqotni kuchaytirish kelgusida ham izchil ravishda davom ettiriladi.

Hulkar JO‘RAYEVA,
“O‘zbekgidroenergo” AJ axborot xizmati
bosh mutaxassisi

yo‘qolganida emas, balki qulay ishbilarmonlik muhiti yaratilganida ham namoyon bo‘lyapti. Chunki davlat tadbirkorning rivojlanishi, ish faoliyati davom etishi, buning ortidan yurt iqtisodiyoti o‘sib borishidan manfaatdor. Shu jihatdan biznes egasi faoliyatida xatolikka yo‘l qo‘ysa, aybi isbotlanganda ham iqtisodiy zararni qoplash imkoniyati berilib, jinoyat ishi ochmaslik qoidaga aylantirilgani ham buning isboti. Chunki insonimiz, xato qilishimiz tabiiy. Tadbirkor doim ham yuz foiz salohiyatga ega bo‘lmaydi, ba’zida faoliyatida kamchiliklarga yo‘l qo‘yadi. Bunday vaqtda xatoni tuzatishga imkon berish uni yanada rag‘batlantiradi.

Umuman, ishbilarmon odamga davlatning do‘sti sifatida qaralib, katta ishonch bildirilyapti. Ana shu ishonchni oqlash faqatgina qonuniy huquqlarimizdan to‘g‘ri foydalanish emas, balki to‘g‘ri ishlash, fuqaro sifatidagi burchlarimizni ham mas’uliyatli o‘ld etishimizga undaydi.

Masalan, bozorda erkin raqobat muhiti yaratilgani barcha tadbirkorlar uchun keng yo‘l ochdi. Ammo bu iste’molchilar huquqlariga daxl qilmasligi kerak. Bozor erkin bo‘lgani sari kontrafakt, ya’ni litsenziyalanmagan, sifat sertifikatini mavjud bo‘lmagan mahsulotlar kirib kelishi sezilarli kamaymayapti. Ular sifat nazoratini chetlab o‘tmoqda, tekshiruvlar yo‘qligi esa nazoratni boshqarishi sushtigiga olib kelyapti. Shu bois, mahsulotlar, xususan, import oziq-ovqatlar sifati tekshiruvlarini tizimli ravishda olib borish zarur. Tekshiruv degani faqat tadbirkorlar faoliyatiga daxl qilish emas, balki manzilli dastur hamda chegaralangan miqyosdagi harakatni anglatadi, bu bevosita iste’molchilar huquqlarini himoya qilish bilan bog‘liq jarayon.

Ikkinchi tomondan, bozordagi erkinlik ba’zan reklama talablari buzilishiga ham olib kelmoqda. Masalan, biz o‘zimiz bolalar oziq-ovqatlarini sotamiz, ammo hech qachon ona suti o‘mini bosuvchi bo‘tqalarni reklama qilmaymiz. Chunki bu qonundan taqiqlangan. Lekin ba’zi tadbirkorlar bunga e’tibor bermaydi, bolani ona suti bilan katta qilishni rag‘batlantirish o‘miga, tinmasdan bo‘tqalarni reklama qiladi. Hatto reklamada “ona suti o‘mini to‘liq bosadigan” kabi iboralarni qo‘llash, ayniqsa, noto‘g‘ri deb bilaman. Sababi, yoshlarda bu masalaga yondashuv o‘zgarib boryapti. Xalqaro tashkilotlar ma’lumotlariga ko‘ra, hozirgi kunda 25 foizgina ayollar bolani 5 oyga qadar ona suti bilan oziqlantiraypti. Boshqalar tayyor bo‘tqalarga o‘tib ketyapti. Tadbirkor bundan foyda ko‘radi, ammo faqat iqtisodiy manfaatni o‘ylash ham noto‘g‘ri. Chunki bu yerda ona sutidagi foydali mikroelementlar yosh organizmga zarurligidan tashqari, immunitet, bolaning psixologik salomatligi kabi muhimroq omillar ham bor. Ona suti o‘mini hech bir bo‘tqa bosa olmaydi, buni iste’molchilarga yetkazish, nazarimda, tadbirkorning ijtimoiy mas’ulligi namunasidir.

Hozir tadbirkor bo‘lish nafaqat sharaf, balki katta mas’uliyat hamdir. Davlat yaratgan qulay shart-sharoitlardan oqilona foydalanish, imtiyozli kreditlar, kafilik mexanizmlari, lizing dasturlari va ko‘rgazmalar orqali yangi bozorlarga chiqish imkoniyatlari bizdan halol mehnat, qonuniy faoliyat va jamiyat oldidagi ijtimoiy mas’uliyatni talab qiladi. Soliq to‘laymiz, qonunlarga rioya etamiz, aholi salomatligi va farovonligi uchun foydali mahsulotlar yaratib, jamiyat manfaatini o‘zida xizmat qilamiz. Bu — bizning tanlovimiz, kasbiy va inson sifatidagi o‘zligimizni belgilaydigan hayot yo‘lidagi vazifamiz. Shu yo‘lda Konstitutsiyamiz biz uchun eng ishonchli tayanchdir.

Yangi O‘zbekistonda aholining ehtiyojmand qatlamini qo‘llab-quvvatlash va munosib turmush sharoiti yaratish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan. Shu asosda ijtimoiy himoya tizimi tubdan yangilanib, bu boradagi ishlar aniq maqsadli va manzilli dasturlar asosida amalga oshirilmoqda. Jumladan, Ijtimoiy himoya yagona reyestri ishga tushirilgani millionlab fuqarolar ma‘lumotlarining raqamli platformada jamlanishida qo‘l keldi.

Inson qadri



Noroy SOATOVA,
Ijtimoiy himoya milliy agentligi
bosh mutaxassisi

Davlat tomonidan ko‘rsatilayotgan ijtimoiy yordam va xizmatlar samaradorligi ortib, ortiqcha qo‘g‘ozbozliklar bartaraf etildi. Korruptsiya holatlarning oldi olindi. Tizim orqali fuqarolarning ehtiyojini real vaqt rejimida aniqlash hamda ijtimoiy yordamning adolati taqsimoti ta‘minlandi. Natijada naqalqalar, bolalar uchun to‘lovlar, uy-joy subsidiyalari hamda nogironligi bo‘lgan shaxslarga ko‘rsatilayotgan yordam miqdori sezilarli darajada oshdi.

Joriy yilning 9 oyida kam ta‘minlangan 690 mingdan ortiq oilaga bolalar nafaqasi yoki moddiy yordam to‘lab berilgani va ayni paytgacha kelib, respublikamizdagi oilalarning 6,3 foizi ushbu reyestrda ro‘yxatda turishi fikrimiz tasdiq‘idir.

Mazkur ishlar natijasida ijtimoiy himoya tizimida fuqarolarning mehnat bozoriga qayta integratsiya qilinishiga katta e‘tibor qaratilmoqda. Bu jarayonda kasbga o‘qitish, yangi ish o‘rinlari ochish va faol ijtimoiy siyosat orqali aholini ish bilan ta‘minlash choralari ko‘rilyapti.

Prezidentimizning joriy yil 8-maydagi “O‘zgalar parvarishiga muhtoj shaxslarga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish ko‘lamini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga asosan tadbirkorlik subyektlari va Ijtimoiy himoya milliy agentligi tasarrufidagi tashkilotlar tomonidan 5 ta yangi xizmat yo‘lga qo‘yildi. Xususan, “Faol hayotga qadam” dasturi doirasida o‘zgalar parvarishiga muhtoj shaxslar uy sharoitida hamda kunduzgi qatnov asosida qarab turish xizmatlariga qamrab olingan. Joriy yil 1-noyabr holatiga ko‘ra, 5929 fuqaroga qarab turish xizmati ko‘rsatish yo‘lga qo‘yildi.

Bandlik — ijtimoiylashuvning asosiy omili. Shunday ekan, mehnat nafaqat daromad manbai, balki shaxsning jamiyatdagi o‘rmini belgilaydigan muhim ijtimoiy vosita hamdir. Ish bilan ta‘minlanishi ehtiyojmand oilalarning iqtisodiy barqarorligini mustahkamlab, ijtimoiy faolligini yaxshilaydi, farzandlar ongida mehnatning qadri-qimmatini oshiradi.

Hozirgi global taraqqiyot jarayonida “inklyuzivlik” tushunchasi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. U jamiyatning barcha qatlamini teng huquqli, mehnat va daromad manbaiga ega qilishni nazarda tutadi. Inklyuziv



IJTIMOIY HIMOYA

HECH KIM E‘TIBORDAN CHETDA EMASLIGINI ANGLATUVCHI SAMARALI TIZIM

bandlik siyosati, avvalo, nogironligi bo‘lgan shaxslar, ayollar, yoshlar va ehtiyojmand oilalarni mehnat jarayoniga jalb etishga qaratilgan. To‘siqlar jismoniy emas, balki jamiyatning munosabati va yondashuvida namoyon bo‘ladi. Inklyuziv jamiyat barpo etish, ko‘rish imkoniyati cheklangan insonlar hayoti uchun barobar sharoiti yaratish — barcha uchun umumiy vazifadir.

Masalan, ko‘rish imkoniyati cheklangan fuqarolar uchun to‘siqsiz muhit yaratish, ta‘lim, tibbiy va ijtimoiy reabilitatsiya bilan ta‘minlash ishlari izchillik kasb etgan. Mazkur toifadagi fuqarolar uchun infratuzilmani moslashtirish, ularning hayotda to‘laqonli ishtirokini ta‘minlash masalasida 300 dan ortiq ijtimoiy, aholiga xizmat ko‘rsatish va tijorat obyektlarida to‘siqsiz muhit yaratildi. Respublikamiz bo‘yicha ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi 3100 dan ortiq o‘quvchining 17 ta maxsus maktabda ta‘lim olishi ta‘minlandi.

Avvalgi tartib bo‘yicha bemorlar nogironlikni belgilash masalasida faqat tuman markaziy poliklinikalari vrachlik-maslahat komissiyalariga og‘zaki murojaat qilgan bo‘lsa, endi tuman (shahar) “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari,

ijtimoiy xodimlar, my.gov.uz portali va oilaviy shifokorlar orqali murojaat qilishi mumkin.

Nogironlikni belgilashdan avval barcha uchun bir xil davolanish muddati (4 oydan 6 oygacha) bo‘yicha talab bekor qilinib, kasallikdan kelib chiqib, individual davolanish muddati va minimal tibbiy tekshiruv mezonlari belgilandi. Qolaversa, sirtidan (ko‘rikka chaqirtirmay) nogironlik belgilanadigan kasalliklar hamda ularning asorati ro‘yxati 48 tadan 60 taga kengaytirildi.

Inklyuziv mehnat siyosati faqat davlat organlari emas, balki mahalla tizimi va nodavlat tashkilotlar ishtirokini ham talab etadi. Mahallalarda aholining ehtiyojmand qatlamlari aniqlanib, ular uchun yashash joyida ish o‘rni yaratish, kasb-hunarga o‘qitish orqali ijtimoiylashuvga yo‘naltirish muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, aholini ijtimoiy himoya qilish, ehtiyojmand oilalar bandligini ta‘minlash nafaqat iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, balki jamiyatda ijtimoiy adolat va hamjihatlikni ta‘minlashning muhim yo‘li. Inson qadri va adolat sari qat‘iy qadam tashlar ekanmiz, bu borada davlat organlari, mahalliy hokimliklar, jamoat tashkilotlari va xususiy sektorning hamkorligi ijobiy natija beradi.

Inklyuziv mehnat siyosati faqat davlat organlari emas, balki mahalla tizimi va nodavlat tashkilotlar ishtirokini ham talab etadi. Mahallalarda aholining ehtiyojmand qatlamlari aniqlanib, ular uchun yashash joyida ish o‘rni yaratish, kasb-hunarga o‘qitish orqali ijtimoiylashuvga yo‘naltirish muhim ahamiyatga ega.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

3-dekabr — Xalqaro nogironlar kuni

Feruza tug‘ilganida sog‘lom, binoyidek qizaloq edi. Ota-onasi uni asrab-avaylashga urinar, bir olam orzular og‘ushida tarbiya qilardi.

Qizi ulg‘aysa, nufuzli oliygo‘hlarida ta‘lim olishi haqida o‘ylardi. Bu olam-olam niyatlar ularga o‘zgacha zavq berardi. Ammo hayot sinovlarini oldindan bilib bo‘lmas ekan...

Ularning xonadoni poyezd yo‘liga yaqin edi. Kunlarning birida uyda yolg‘iz qolgan qizaloq poyezd yo‘liga chiqib qoldi. Bola temir yo‘l izlarida o‘tirgancha, o‘yinga beriladi. Bir payt bahaybat poyezd chinqirgancha kelib qoladi. Boshqaruvchi shuncha ogohlantirish bersa-da, bolani ko‘targancha chetga olib chiqadigan biror kishi topilmaydi.



SABR VA IRODA BILAN BAXTINI YARATGAN AYOL

Feruza bir zumda yetib kelgan vagonlar tagida qolib ketadi. Falokat oyoq ostida, deya bejiz aytilmagan. Nari borsa o‘n besh daqiqa ichida shu holat ro‘y beradi. Quvonarlisi, vagonlar o‘tib ketganida u tirik qoladi. Ammo bir qo‘lining bilagidan, bir qo‘lining ikki barmog‘idan ayriladi. Bundan xabar topgan ota-ona hushini yo‘qotadi...

Katta jarrohlik amaliyoti o‘tkazilib, qizning hayoti saqlab qolindi. Endi 2-guruh nogironi bo‘lib qolgan qizni ulg‘aytirishga alohida e‘tibor qaratish zarur edi. Ota-onasi uning injiqliklariga ko‘nikib, imkon boricha ko‘nglini o‘ksitmaslikka harakat qilardi. Unga kerakli sharoitni yaratib berishgandi. Vaqt o‘tib maktabga qatnay boshladi.

Bu hayotda harakat qilgan kishi hech qachon kam bo‘lmaydi. Bor-yo‘g‘i uchta barmoq bilan bo‘lsa-da, bugun ro‘zg‘orga nafim tegayotganidan mamnunman. Agar uyda nogironman, deya o‘tiraversam ham kun o‘tadi. Ammo bu odamliylikka to‘g‘ri kelmaydi. Buni qabul qilolmayman. Negadir izlanishda to‘xtab qolgim kelmaydi. Shukrki, biz kabi imkoniyati cheklanganlar uchun qator imtiyozlar berilgan. Bundan tashqari, nogironligi bor shaxslarni ishga qabul qilgan tadbirkorlar uchun ham soliqda yengilliklar bor. Bugun men Qarshi shahridagi Yerqo‘rg‘on bozorida orasta bo‘lib ishlayman. Boshida ko‘pchilik bu ishni bajarib ketishimga shubha bilan qaragandi.

mavsumida qahramonimiz bir kunda 100-120 kilogramm paxta terganiga guvoh bo‘lganlar hayratdan yoqa ushladi. Ijtimoiy tarmoqlar orqali ham uning bu mahorati ko‘plab olqishlarga sazovor bo‘ldi. Ikki qo‘l bilan arang 30-40 kilogrammdan nariga o‘ta olmaydiganlar atigi uchta barmoq bilan bir sentnerdan ko‘p paxta terayotgan opani ko‘rib, uyatdan yuzi qizargani bor gap.

— Yoshligimda paxta terishni yaxshi ko‘rtardim, — deydi F.Bo‘riyeva. — Terim paytida ishdan bo‘sh vaqtlarim, dam olish kunlari etak taqib, dalaga yo‘l olaman. Erta tongdan kechga qadar yuz kilodan ziyod paxta terganimni ko‘rganlar gohida ishonmaydi. Ba‘zida kimlardi gumonga borib ortimdan kuzatib yurgan damlar ham bo‘lgan. Haqiqat mehnatda ekanini anglab, jim qolishgan. Halol mehnatga nima yetsin? Bir kunda terim ortidan 200 ming so‘mdan ortiq pul ishlab topib, ro‘zg‘orga nafim tegsa yomonmi?! Shunday yurtida yashayotganidan mamnunman. Biror marta e‘tibordan chetda qolganim yo‘q. Mas‘ullar doim ahvolimizdan xabardor bo‘lib turibdi. Yaqinda bir million so‘m moddiy yordam berishdi. Qish fasli oldindan bu bizga katta ko‘mak bo‘ldi. Kitob o‘qigan kishilarni juda yaxshi ko‘raman. Shu sabab har safar maosh olsam, albatta, bitta bo‘lsa-da, badiiy kitob sotib olaman. Farzandlarim o‘qib, bilimli bo‘lsin, deymen.

Feruza opa kabi sabrga suyanib hayot kechirayotgan jasoratli odamlarni boshqalarga qancha o‘rnak qilib ko‘rsatsak kam. Aslida, uning har bir harakati qahramonlik. Bu gapim bir oz erish tuyilishi mumkin. Teran nigoh bilan qaralganda, imkoniyati cheklangan bo‘la turib, bir oilani moddiy ta‘minlab, turmushini farovon qilayotgan ayol, albatta, qahramondir!

Akbar RAHMONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Feruza opa mehnatkashligi bilan allaqachon nafaqat mahallasida, balki butun viloyatga yaxshi tanilgan. Misol uchun, yaqinda yakuniga yetgan paxta terimi mavsumida qahramonimiz bir kunda 100-120 kilogramm paxta terganiga guvoh bo‘lganlar hayratdan yoqa ushladi. Ijtimoiy tarmoqlar orqali ham uning bu mahorati ko‘plab olqishlarga sazovor bo‘ldi.

Tirishqoqli bo‘is, o‘qishni tez o‘zlashtirib oldi. Zehni o‘tkirli sabab boshqa tengdoshlariga nisbatan ancha iqtidorli edi. Kuchli xotirasi bilan ustozlarni doim qoyil qoldirardi.

Maktabni tugatgach, oila qurdi. Turmush o‘rtog‘i bilan Qarshi tumanidagi Paxtaxor mahallasining eng baxtli oilalari qatorida tilga olinadigan bo‘ldi. Bugun ular to‘rt farzandni dunyoga keltirib, voyaga yetkazmoqda.

— Baxtsiz tasodif tufayli nogiron bo‘lib qolganman, — deydi Feruza Bo‘riyeva. — Lekin shunday ekanman, deya tushkunlikka tushib yurish nodonlik. Biror marta taqdirimdan noliqanimg yo‘q.

Hozir eng chaqqoni o‘zim ekanimni tan olishadi. Bilasizmi, shu paytgacha biror marta hech bir idora eshigini taqillatib, yordam so‘rab bormadim. Barchasiga mehnatim orqali erishyapman. Farzandlarimni birovdan kam qilmadik. Ro‘zg‘orimiz but. Gohida sog‘lom, tog‘ni ursa talqon qilgudek kuchga ega kishilar yordam so‘rab yurganini ko‘rib achinaman. Katta tomorqasi bo‘lsa-da, mehnat qilishga erinadigan dangasalardan bir oz jahlim chiqadi.

Feruza opa mehnatkashligi bilan allaqachon nafaqat mahallasida, balki butun viloyatga yaxshi tanilgan. Misol uchun, yaqinda yakuniga yetgan paxta terimi

Matonat



2025-yilning 18-noyabriga farg‘onalik Shahina Yigitaliyeva hayotida unutilmas kun bo‘lib qoldi. Shu kuni poytaxtimizning Anjumanlar saroyidagi ulkan monitorda inson hayotiga doir ta‘sirli hikoyalar jonlandi. Ular orasidan yosh paraatlet, farg‘onalik 16 yoshli Shahinaning hayot hikoyasi ham o‘rin olgani diqqatga sazovor. “Inson faxri” milliy mukofoti uchun 11 yo‘nalish bo‘yicha yil qahramonlarini tanlab olishda tashkilotchilar tomonidan yuzlab ta‘sirli hikoyalar o‘rganib chiqildi.

Yosh paraatlet hikoyasining avvalida ekranda 16 yil avval to‘rtinchi bor qiz farzandli bo‘lganida emas, uning bir qo‘li yarimta ekanidan chuqur qayg‘uga botgan otaning nurli chehrasi ko‘rindi: “Shahina qizimiz 2008-yili dunyoga keldi. Uch opasining hammasi sog‘lom. U esa chap qo‘lida nuqsoni bilan tug‘ildi. Bu nimadan ekan, deya uzoq o‘ylanganman”. Ko‘zida sezilar-sezilmas yosh aylangan ota siymosi o‘rnini xokisor o‘zbek ayolining mahzun, ayni paytda shukronalikdan gulgun chehrasi egalladi: “Qizimni dunyoga keltirganimda hamma onalar qatori xursand bo‘lganman, biroq “Nima uchun? Qanday qiz bo‘larkan?” degan savollar girdobida qolganman”.

— Birinchi marta 14 yoshida Xitoyda kattalar o‘rtasidagi Paraoosiy o‘yinlarida qatnashgan. Biz, oddiy odamlar, sportni uncha tushunavermasdik. O‘shanda rekordni yangilagan va oltin medal olgandi. Prezidentimiz farzandimizni bag‘riga bosib, alohida tabriklaganida, bu musobaqaning mavqei baland, nufuzli ekanini bilganmiz. Oltin medal olganini eshitganimizda esa onasi ikkalamiz bog‘da o‘tirgandik, yig‘laganmiz, — dedi Shokir aka Turdialiyev.

Uning yarmi chala aytilgan “yig‘laganmiz” so‘zi tomoshabinni ham yig‘latdi.

— Bolaligimda dunyoda bitta mening qo‘lim shunday bo‘lsa kerak deb o‘ylardim, — degan samimiy so‘zlar ortidan istaralikkina, ko‘zlari kulib turgan Shahina paydo bo‘ldi.

— Chunki men o‘zimga o‘xshagan odamni ko‘rmaganman. Bog‘chada ikki kishi bo‘lib raqsga tushilar, men ham bir bolaning sheribi bo‘lishim kerak edi. Haligi bola bog‘cha opamizga “Shahina bilan raqsga tushmayman, uning qo‘li yo‘q”, dedi. Shartta chiqib ketib qolganman.

Bu kabi holatlar bola ruhiyatiga salbiy ta‘sir qiladi, albatta. Maktabda o‘qiy boshlaganida ham Shahina sportga qiziqmas, jismoniy tarbiya darslarida shunchaki o‘ynab yurishni yaxshi ko‘rardi. 2019-yilda yaqinlaridan birining tavsiyasi bilan dadasi uni Dang‘aradagi bolalar va o‘smirlar sport maktabiga olib bordi.

— 2021-yildan buyon katta musobaqalarda qatnashib kelayotgan bo‘lsam, o‘tgan yili Fransiyadagi birinchi Olimpiadada juda hayajonlandim. Katta maydon, minglab tomoshabinlar, ko‘plab qo‘llab-quvvatlovchilar. Garchi oltin medal ololmagan bo‘lsam-da, keyingi Olimpiada uchun oldimga ulkan maqsadlarni qo‘yganman. Paralimpiyadagi rekord men kuttgan g‘alaba emas. Eng katta orzuim — sog‘lom sportchilar bilan bellashib, ular orasida ham rekord natijani qayd etish, — dedi yosh sportchi.

Guldoros qarsaklar chalindi, olqishlar, e‘tiroflar bo‘ldi. 15 yoshida jahon arenalari toqida bayrog‘imiz mag‘rur hilpirashiga sababchi bo‘lgan Shahina o‘z irodasi bilan boshqalarga namuna bo‘lib kelayotgan eng yosh yurtdoshimizga aylandi.

“Bunday jiddiy davrada, katta-katta ishlarni amalga oshirgan insonlar qatorida turishim, to‘g‘risi, xayolimga ham kelmagan va mening yoshimda bu tabiiy bo‘lsa kerak. Birinchi marta o‘tkazilayotgan va juda hayajonli bu tadbirda mamlakatimizning ko‘zga ko‘ringan shaxslari, yuqori lavozim egalari ko‘rdim. Eng hayajonlisi, ota-onam ham yonimda edi. Shu tobdan benihoya baxtiyor insonga aylandim. Bir paytlar faqat mening qo‘lim shunday bo‘lsa kerak degan bola tushuncham o‘rnini “Nahotki, aynan mening yutuqlarim e‘tirofga loyiq bo‘lsa”, degan hayrat egalladi. Buning uchun, avvalo biz, parasportchilarni mana shunday e‘tibor va e‘tirofga munosib ko‘rib, barcha sharoitlarni yaratib berayotgan Prezidentimizdan minnatdorligimning cheki yo‘q”.

Ayni paytda ustozlarim bilan 2028-yil Los-Anjeles shahrida (AQSH) bo‘lib o‘tadigan XVIII Paralimpiya o‘yinlariga tayyorlanypmiz. G‘alaba va yana g‘alaba uchun barcha sharoit yetarli. Endilikda parasportchilar, ayniqsa, nogironligi bo‘lgan qizlarga imkoniyatiga qarab boshqa sportchilar bilan birga shug‘ullanishiga sharoit yaratib berilishi bizni yanada ruhlantiradi”, deydi Shahina.

Ha, bugun mamlakatimizda parasportchilarga, ayniqsa, qizlarga e‘tibor har qachongidan kuchli. So‘nggi uch yilda parasport bilan mintazam shug‘ullanuvchilar 4 karra ko‘payib, 7 mingdan oshgani, ayol

parasportchilar ulushi esa qariyb 30 foizga yetgani buning amaldagi ko‘rinishi.

— Prezidentimiz shu yil 8-iyul kuni imzolagan “2028-yil Los-Anjeles shahrida (AQSH) bo‘lib o‘tadigan XXXIV yozgi Olimpiya va XVIII Paralimpiya o‘yinlariga O‘zbekiston sportchilarini kompleks tayyorlash to‘g‘risida”gi tarixiy qarori bilan Shahina kabi sportchi yoshlar uchun qo‘llab-quvvatlash mexanizmi paydo bo‘ldi, — deydi marabbiy Azizjon Normatov. — Buning samarasi o‘laroq, shogirdimning milliy mukofot darajasida taqdirlanganidan boshim osmonga yetdi. Dadasi bilan ilk bor stadionimizga kirib kelganini esladim. O‘shanda uning xalqaro darjadagi sportchi bo‘lib qishishini bilganman. Unga astoydil harakat qilsang, butun dunyoga tanilishning mumkin deb ko‘p bor aytganman. Oldimdida bitta katta maqsad turibdi — 2028-yilgi Paralimpiya o‘yinlarida oltin medalni qo‘lga kiritish. Buning uchun barcha sharoit bor, imkoniyatimiz yetarli.

Qahramonimizning onasi aytganidek, u ham oddiygina, o‘zini ehtiyot qilib yashab yurishi mumkin edi. Vaholanki, Dilnoza aya bu farzandini ko‘p avaylagan, kerak bo‘lsa sportni ham taqiblamochi bo‘lgan. Biroq Shahina sog‘lom odamlar qiladigan ishlarga qodirligi, xususan, sportda ham imkonsiz emasligini isbotlash yo‘lida qat‘iy boriyapti.

Zero, parasportchilar chinakam matonat timsollari, metin irodalilik boida insonlarga ibratdir. Aslida, ularning shunchaki sport bilan shug‘ullanishi ham katta natija. Biroq ular orasida jahon arenalarida rekordga erishayotgan ancha-muncha ekan inson zoti nelarga qodirligini amalda ko‘rsatib turibdi.

Munojat MO‘MINOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

BETAKROR REKORD SOHIBASI

Mulohaza

KELAJAK SARMOYASI

YOKI ISROF VA DABDABA NING YASHIRIN IQTISODIY KISHANLARI



Abdug'afvor JO'RAYEV, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Insoniyat tarixi va jahon iqtisodiyoti taraqqiyotini tahlil qilar ekanmiz, millatlarning yuksalishi nafaqat tabiiy resurslar yoki geografik joylashuvga, balki ko'proq jamiyatda shakllangan iqtisodiy madaniyat hamda moliyani samarali boshqarish ko'nikmasiga bog'liqligi ayon bo'ladi. Bugungi kunda yangi O'zbekiston o'z oldiga Uchinchi Renessans poydevorini bunyod etishdek ulkan va sharaflı maqsadni qo'yan bir pallada keng jamoatchilik e'tiborini milliy rivojlanishimizga ko'zga ko'rinmas, ammo nihoyatda og'ir yuk bo'lib osilib turgan o'tkir muammoga qaratishimiz ayni muddao.

Mazkur muammo jamiyatimizning barcha qatlamlariga chuqur ildiz otib ulgurgan, iqtisodiy qon tomlarimizni to'sib, taraqqiyot sur'atini susaytirayotgan dabdababozlik va isrofgarchilik illatidir. Ko'pchilik bunga shunchaki axloqiy yoki ma'naviy nuqtayi nazardan qarashga odatlangan bo'lsa-da, masala mohiyati ancha chuqur. Uning iqtisodiy zararlari mamlakat yalpi ichki mahsuloti o'sishiga, investitsion muhit jizibadorligiga va aholi turmush darajasiga bevosita salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Keling, his-hayajonni bir chetga surib, faqat raqamlar va iqtisodiy tahlil tilida so'zlashaylik. So'nggi yillarda o'tkazilgan tahlillar va mavjud statistik ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatimizda bir yil davomida o'tkaziladigan to'y-



hashamlar, turli marosim va tantanalar uchun sarflanadigan mablag' miqdori taqriban 2,5 milliard dollarni tashkil etmoqda. Bu shunchaki statistik ko'rsatkich emas, balki millatimiz kelajagiga kiritilmay qolgan ulkan sarfmaydir. Iqtisodiyotda "muqobil xarajat" degan tushuncha mavjud bo'lib, ushbu qoida resurslarni bir maqsadga yo'naltirish oqibatida boy berilgan boshqa imkoniyatlarni baholashni taqozo etadi. Havoga sovurilayotgan o'sha 2,5 milliard dollar aslida, nimalarga qodir ekanini tasavvur qilish uchun oddiy arifmetikaga murojaat qilishning

o'zi kifoya. Agar mamlakatimizda 10 mingga yaqin mahalla mavjudligini inobatga olsak, bu mablag' har bir mahallaga yiliga o'rta 250 ming dollardan to'g'ri keladi.

Xo'sh, har bir mahalla yiliga 250 ming dollarlik real investitsiyaga ega bo'lganida, hayotimizda nimalar o'zgarishi mumkin edi? Mazkur mablag' evaziga har bir mahallada zamonaviy, 50-60 o'rinli kichik ishlab chiqarish sexi, ixcham tikuvchilik fabrikasi yoki qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash tarmog'ini tashkil etish imkoniyati paydo bo'lardi. Birgina mahalla miqyosida yaratiladigan bunday quvvatlar kamida ishsiz 50-100 fuqaroni, ayniqsa, yoshlar va ayollarni doimiy daromad manbai bilan ta'minlashga xizmat qilgan bo'lar edi. Respublika miqyosida olib qaraganda esa mazkur dabdabalar o'rni har yili 10 mingga kichik korxona ochilishi, yuz minglab yangi ish o'rni yaratilishi va pirovardida kambag'allikni keskin qisqartirish real haqiqatga aylanardi. Afsuski, biz ushbu ulkan kapitalni bir kunlik, ba'zan esa bir necha soatlik tantanalar uchun sarflab, ertasi kuni hech qanday iqtisodiy qiymat yaratmaydigan bezaklar ko'rinishida yo'qqa chiqarmoqdami.

Isrofgarchilik oilaviy byudjetigagina emas, makroiqtisodiy barqarorlikka ham jiddiy putur yetkazayotgani ayni haqiqat. To'y-hashamlar uchun sarflanayotgan oziq-ovqat mahsulotlari, xususan, go'sht, guruch, yog' va shakar kabi tovarlarga sun'iy ortiqcha talab ichki bozorda narx-navo oshishiga sabab bo'ladi. Iqtisodiyotning oltin qoidasiga ko'ra, talab taklifdan ustun bo'lsa, muqarrar ravishda inflyatsiya yuzaga keladi. Bizdagi to'y iqtisodiyatidagi shakllangan, unda ishtirok etuvchilar soni va dasturxonlar to'kinligi o'ziga xos raqobat darajasiga ko'tarilgan. Oqibatda bozorlardagi narxlar nafaqat mavsumiy omillar, balki mana shunday doimiy "bayramona bosim" ostida ham yuqori bo'lib qolmoqda. Bundan tashqari, dabdababozlik uchun xarid qilinadigan qimmatbaho mebellar, chet eldan keltiriladigan kiyim-kechaklar, bezaklar va hatto kortejlar uchun olinadigan hashamatli avtomobillar mamlakat valyuta zaxiralari chetga chiqib ketishiga, import hajmi eksportga nisbatan nomutanosib ravishda oshishiga olib keladi. Vaholanki, o'sha valyuta ilg'or texnologiyalar va uskunalar xaridiga yo'naltirilganda, milliy iqtisodiyotimizning eksport salohiyati bir necha barobar ortgan bo'lar edi.

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, bugungi kunda dunyoning eng rivojlangan davlatlari qatoridan joy olgan Yaponiya, Janubiy Koreya yoki Germaniya kabi mamlakatlarning yuksalish davri aynan qattiq tejamonlik va resurslarni oqilona taqsimlash siyosati bilan chambarchas bog'liq ekaniga guvoh bo'lamiz. Ikkinchi jahon urushidan keyin vayronaga aylangan Yaponiya xalqi o'z oldiga "qorin to'y"ga aziz emas, millatni tiklash" g'oyasini qo'yan va har bir iyenani faqat ta'lim, texnologiya va ishlab chiqarishga sarflagan. Ular



dabdabali to'y-larni, ortiqcha hashamatni millat xoinligi bilan tenglashtirib, kamtaronalikni vatanparvarlikning eng oliy belgisi sifatida qabul qilgan. Janubiy Koreyada ham o'tgan asrning 60-70-yillarida o'tkazilgan "Yangi qishloq" harakati doirasida isrofgarchilikka qarshi keskin kurashilgani natijasida bugun dunyo tan olgan "Xan daryosidagi mo'jiza" sodir bo'ldi. Ular hashamatli uylar qurish yoki to'y qilishda emas, balki farzandlarini dunyoning eng nufuzli universitetlarida o'qitishda, jahon bozorini egallaydigan kompaniyalar tuzishda o'zaro musobaqalashgan. Bizda esa, afsuski, ko'p hollarda buning tamoman teskarisi:

qilib qo'yadi degan qarash mutlaqo noto'g'ri va zararli stereotipdir. Aksincha, dabdaba ketidan quvish insonni doimiy ruhiy bosimda, qarz yukida va "odamlar nima derkin" degan xavotirda yashashga majbur qiladi. Bugungi kunda minglab yosh oilalar to'ydan keyin yillar davomida ota-onalarining dabdaba uchun olgan qarzlarini to'lash bilan ovora bo'lib, o'zining shaxsiy rivojlanishi, farzandlarining ta'limi va salomatligi uchun yetarli mablag' ajrata olmayotgani achchiq haqiqatdir. Agar ushbu mablag'lar to'yga emas, yosh oilaning uy-joyi uchun boshlang'ich to'lovga, biznes boshlashga yoki chet elda o'qishga sarflansa,

YOSHLARIMIZ ongida "muvaffaqiyat – hashamatli TO'Y VA QIMMAT MASHINA" degan soxta qadriyat o'rtnashib qolmoqda. Ular mashaqqatli ilm yo'li, ilmiy izlanish yoki HALOL BIZNES QURISHNI EMAS, balki TEZROQ PUL topib, elga KO'Z-KO'ZLASHNI MAQSAD QILMOQDA.

odamlarimiz o'z maqomini ilmiy yutuqlari yoki yaratgan innovatsiyalari bilan emas, balki bir kunda yuzlab kilogramm go'sht tarqatishi yoxud yuzlab mehmonlarni chaqirishi bilan belgilashga urinmoqda.

Ushbu muammoni faqat to'y-lar misolida ko'rish tor doiradagi yondashuv hisoblanadi. Zero, isrofgarchilik virusi jamiyatimizning boshqa jabhalariga, jumladan, turli marosimlar, yubileylar va taqdimotlarga ham sirg'alib kirgan. Katta-kichik tadbirlarda ko'zga tashlanadigan ortiqcha bezaklar, qimmatbaho sovg'alalar, hashamatli ziyofatlar aslida, hech qanday amaliy natija bermaydi, aksincha, jamiyatda tabaqalanishni kuchaytirib, oddiy xalqning haqli e'tiroziga sabab bo'ladi. Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilayotgan "davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak" degan ezu g'oya, eng avvalo, byudjet mablag'larining har bir tiyini tejab, uni faqat xalq farovonligiga yo'naltirishni anglatadi. Tadbirlardagi kamtaronalik, ixchamlik va mazmundorlik imkoniyatsizlik belgisi emas, balki yuksak madaniyat, intellektual salohiyat va o'z xalqi oldidagi mas'uliyatning yorqin ifodasidir. Dunyoning eng boy insonlari, yirik korporatsiya rahbarlari ham bugungi kunda o'ta kamtarona hayot tarzini tanlamoqda. Chunki ular haqiqiy baxt va muvaffaqiyat tashqi yaltiroqlikda emas, balki yaratuvchanlik va jamiyatga keltirilgan foydada ekanini chuqur anglab yetgan.

Kamtarlik insonni baxtsiz yoki birovdan kam

nafaqat o'sha oilaning, balki butun jamiyatning iqtisodiy poydevorini mustahkamlashga xizmat qilgan bo'lardi. Baxt qimmatbaho restorandagi bir kechalik bazm emas, balki o'z uyiga, o'z ishiga, barqaror daromadga va erkin hayotga ega bo'lish demakdir. Bu kabi illatdan voz kechish orqali biz o'zligimizni yo'qotmaymiz, aksincha, soxta qadriyatlardan xalos bo'lib, haqiqiy insoniy fazilatlarni, mehnatsevarlik va ilm-ma'rifatni birinchi o'rinda olib chiqamiz.

Isrofgarchilikning psixologik va ijtimoiy ildizlariga borib taqaladigan bo'lsak, ko'p hollarda dabdababozlik ortida o'zini ko'rsatish, boshqalardan ustun ekanini isbotlash istagi yotadi. Bu esa jamiyatda sog'lom raqobat emas, balki hasad va ko'r-kor'lona taqlid muhiti, ilm-ma'rifatni birinchi o'rinda olib chiqamiz. Isrofgarchilikning psixologik va ijtimoiy ildizlariga borib taqaladigan bo'lsak, ko'p hollarda dabdababozlik ortida o'zini ko'rsatish, boshqalardan ustun ekanini isbotlash istagi yotadi. Bu esa jamiyatda sog'lom raqobat emas, balki hasad va ko'r-kor'lona taqlid muhiti, ilm-ma'rifatni birinchi o'rinda olib chiqamiz.

Iqtisodiy tahlillarni chuqurlashtiradigan bo'lsak, mablag' dabdaba uchun emas, bank depozitlari yoki fond bozoriga yo'naltirilishi mamlakat bank tizimi likvidligini oshiradi.

Aholi qo'lidagi 2,5 milliard dollar yostiq ostida yoki bir kunlik bazmlarda emas, balki iqtisodiyotning real sektorida aylansa, kredit foiz stavkalari pasayadi, tadbirkorlik uchun moliyaviy resurslar arzonlashadi. Ushbu zanjir reaksiyasi pirovard natijada yana oddiy aholining daromadlari oshishiga olib keladi. Shunday ekan, har bir fuqaro, har bir oila boshlig'i o'z byudjetini rejalashtirayotganda, nafaqat oilasi, balki butun mamlakat iqtisodiyotining kichik bir bo'g'ini ekanini his qilishi lozim. Biz dabdababozlikni qisqartirish orqali iqtisodiyotimizga tashqaridan qarz olmasdan turib ham ichki rezervlar hisobiga milliardlab dollarlik investitsiya kiritishimiz mumkinligini anglashimiz shart.

Shu o'rinda masala mohiyatini yanada kengroq, ya'ni makroiqtisodiy barqarorlik va inson kapitali rivoji nuqtayi nazaridan tahlil qilishni davrning o'zi taqozo etmoqda. Yuqorida keltirilgan raqamlar shunchaki statistik ma'lumot emas, balki jamiyatimizning "iqtisodiy immuniteti" qanchalik zaiflashayotganini ko'rsatuvchi signallardir. Dabdababozlikning ko'zga tashlanmaydigan, ammo davlat poydevorini yemiruvchi boshqa jihatlarga ham e'tibor qarataylik. Avvalo, isrofgarchilik illati mehnat unumdorligiga va ishchi kuchi sifatiga bevosita salbiy ta'sir o'tkazmoqda. Tahlillar ko'rsatadiki, to'y mavsumlarida, ayniqsa, kuz va yoz oylarida davlat xizmatchilari, tadbirkorlar va oddiy ishchilarning ish samaradorligi sezilarli darajada pasayadi. Tungi bazmlar, ketma-ket ziyofatlar va ulardagi jismoniy hamda ruhiy zo'rliqlar oqibatida insonlar ertasi kuni to'laonli mehnat qilishga layoqatsiz bo'lib qoladi. Mamlakat iqtisodiyoti uchun har bir ishchi soatining yo'qotilishi yoki samarasiz o'tishi yalpi ichki mahsulot hajmida ko'rilgan zarar demakdir. Rivojlangan davlatlarda vaqtning boshqarish va mehnat intizomi birlamchi o'rinda qo'yilgani bois, ular bunday "yashirin" iqtisodiy zararlardan xalidir.

Bundan tashqari, dabdababozlik "yashirin iqtisodiyot"ning gullab-yashnashiga zamin yaratuvchi asosiy omillardan biri bo'lib qolmoqda. To'y iqtisodiyatida aylanayotgan millionlab dollar mablag'ning katta qismi naqd pul ko'rinishida harakatlanadi. Restoranlar, san'atkorlar, bezakchilar va xizmat ko'rsatuvchi boshqa soha vakillari aksariyat hollarda daromadlarini deklaratsiya qilmaydi. Bu esa davlat byudjetiga ulkan miqdordagi soliqlar tushmasligiga sabab bo'ladi. Davlat g'aznasiga tushmagan soliqlar ta'mirlanmagan yo'llar, qurilgan maktablar va oshirilmagan pensiyalar demakdir. Mamlakatimizda "yashirin iqtisodiyot"ga qarshi kurash siyosati samara berishi uchun, avvalo, aholi o'rtasida naqd pulga asoslangan dabdabali hisob-kitoblardan

voz kechish madaniyatini shakllantirish zarurati mavjud.

Yana bir jiddiy muammo shundaki, mablag'ning noto'g'ri taqsimlanishi "qashshoqlik tuzog'i"ni yaratmoqda va ijtimoiy tabaqalanishni chuqurlashtirmoqda. Iqtisodiyot nazariyasida "Veblen effekti" degan tushuncha bo'lib, u tovarlarning narxi qanchalik qimmat bo'lsa, obro' orttirish ilinjida unga talab shunchalik oshishini anglatadi. Bizning jamiyatda ushbu holat ayanchli tus olgan: kam ta'minlangan oilalar boylarga taqlid qilib, o'z imkoniyatidan bir necha barobar yuqori xarajat qilishga intilmoqda. Natijada banklardan yuqori foizli iste'mol kreditlari olinadi yoki qarindosh-urug'lardan qarz ko'tariladi. Olingan qarzarlar ishlab chiqarishga yoki daromad keltiruvchi aktivga emas, bir martalik iste'molga sarflangani bois, qarz yuki yillar davomida oilani ezib keladi. Bu esa aholining o'rta qatlamini shakllantirishga to'sqinlik qiladi, vaholanki, kuchli fuqarolik jamiyati va barqaror iqtisodiyot aynan baquvvat o'rta sinfga tayanadi.

Isrofgarchilikning ma'naviy-psixologik oqibatlari inson kapitali sifatini pasaytirayotgani esa eng og'riqli nuqtamizdir. Yoshlarimiz ongida "muvaffaqiyat — hashamatli to'y va qimmat mashina" degan soxta qadriyat o'rtnashib qolmoqda. Ular mashaqqatli ilm yo'li, ilmiy izlanish yoki halol biznes qurishni emas, balki tezroq pul topib, elga ko'z-ko'zlashni maqsad qilmoqda. Bu esa jamiyatda intellektual degradatsiyaga, ya'ni aqliy tanazzulga yetaklaydi. Vaholanki, XXI asr intellektual raqobat asridir. Ilm-fanga, innovatsiyalarga sarmoya kiritish musobaqasini o'tkazganida, bugun O'zbekistondan Nobel mukofoti laureatlari, yirik kompaniya asoschilari chiqishi oddiy holga aylanadi.

Ekologik barqarorlik masalasi ham e'tibordan chetda qolmasligi lozim. Bugungi global iqlim o'zgarishi va resurslar taqchilligi sharoitida tonnalar oziq-ovqat mahsulotlarini isrof qilish kelajak avlod oldidagi jinoyatdir. To'y-lardan keyin chiqindiga tashlanayotgan oziq-ovqat, bir martalik foydalanilgan idishlar, atrof-muhitni ifloslantiruvchi mushakbuzliklar "yashil iqtisodiyot" tamoyillariga mutlaqo zid.

Bugungi kunda musulmon dunyosining rivojlangan davlatlari ham dabdababozlikka qarshi keskin choralar ko'rayotganiga guvoh bo'lyapmiz. Masalan, Birlashgan Arab Amirliklari yoki Qatar kabi boy davlatlarda mahalliy aholi o'rtasida kamtarona nikoh marosimlarini o'tkazish targ'ib qilinmoqda, chunki ular neftdan kelayotgan daromad abadiy emasligini, haqiqiy boylik bilim va texnologiyada ekanini tushunib yetgan. Turkiyada esa tadbirkorlar topgan daromadlarni to'yga emas, yangi fabrikalar qurishga va turizmni rivojlantirishga sarflashni afzal ko'radi. Biz ham o'zimizga yaqin bo'lgan ushbu xalqlarning ijobiy tajribasini o'rganishimiz va tatbiq etishimiz maqsadga muvofiqdir.

Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan "Inson qadri uchun" g'oyasi, avvalo, insonni moddiy qiyinchiliklardan xalos etish, unga munosib turmush sharoiti yaratishni nazarda tutadi. Dabdababozlik esa inson qadriini oshirmaydi, aksincha, uni moddiyat quliga aylantiradi. Haqiqiy inson qadri dasturxon to'kinligi bilan emas, balki farzandlar tarbiyasi, oila tinchligi va jamiyatga keltirilgan foyda bilan o'lchanadi. Biz jamiyat sifatida shunday muhit yaratishimiz kerakki, unda odamlar bir-birini kiyimi yoki mashinasini uchun emas, balki aql-zakovati, halolligi va vatanparvarligi uchun hurmat qilsin. Mazkur holat ijtimoiy psixologiyadagi tub burilish nuqtasi bo'lishi shart.

Isrofgarchilik va dabdababozlikka qarshi kurash shunchaki ma'muriy taqiq yoki cheklovlar masalasi emas, balki millatning tafakkur tarzini, hayotga munosabatini tubdan o'zgartirish masalasidir. Biz farzandlarimizga hashamatli hayotning kaliti dabdabada emas, balki bilimda, mehnatda va tejamonlikda ekanini o'z shaxsiy namunamiz bilan ko'rsatishimiz kerak. Jamiyatimizda shunday muhit yaratishimiz zarurki, unda isrofgarchilik uyat, kamtaronalik va oqilona boshqaruv esa faxr manbai hisoblanadi. Dabdababozlik va isrofgarchilik — yangi O'zbekiston poyezdining tezligini pasaytirayotgan tormoz. Biz Uchinchi Renessans sari dadil odimlar ekanmiz, eski, zamonga mos kelmaydigan, taraqqiyotimizga g'ov bo'layotgan odatlardan voz kechishga majburbiz. Iqtisodiy pragmatizm, oqilona hisob-kitob va yuksak ma'naviyat uyg'unligi bizning yagona to'g'ri yo'limizdir. Agar biz dabdabaga sarflanayotgan millionlab dollarlarni har yili ilm-fanga, sog'liqni saqlashga va ishlab chiqarishga yo'naltira olsak, mamlakatimiz qisqa muddat ichida dunyoning rivojlangan davlatlari qatoriga qo'shilish qudratiga ega bo'ladi.

Buning uchun esa har birimiz o'zgarishni xonadonimizdan, dunyoqarashimizdan boshlashimiz, isrofgarchilikka qarshi o'z shaxsiy "iqtisodiy kurash"imizni e'lon qilishimiz shart. Zero, buyuk jamiyatlar jips millatlar va ularning oqilona qarorlari barpo etadi.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetaları tahririyaıı DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyaıga kelgan qo‘lyozmalar taqriı qilinmaydi va muallifıga qaytarılmaydi.
Gazetaning yetkazib berılıshı uchun obunani rasmiylashtırgan tashkılot javobgar.
Gazeta tahririyaı kompyuter markazıda sahiıfalandı.
Gazetaning polıgrafık jihatdan sıfatlı chop etılıshıga “SHARQ” NMAK mas‘ul.

O‘zbekiston Respublikası Prezidenti Adminıstratsiyaıı huzurıdagi Axborot va omıaviy kommunikaısiyaıar agentıgi tomonıdan 2020-yıl 13-ıanvarda 1047-raqam bilan ro‘ıyatga olınan.
Nashr indeksı — 236. Buyurtma — G-1246.
34655 nusxada bosıldı.
Ofset usulıda bosılın.
Hajmi — 3 taboı. Ofset usulıda bosılın.
Bahoı kelıshılınan narıda.

Navbachi muharrir: Bekıul Egamqulov
Musahhiı: Malohat Mingboyeva
Dizayner: Xurshıd Abdullayev

Manzılimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-ıy

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksıyodarlık kompaniyaıı bosmaxonasıda chop etıldı.
Bosmaxona manzılı: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-ıy.